

39.  
тп-45

TESHABAYEVA ZAMIRA SOBIROVNA

# BO'LAJAK TARBIIYACHI- PEDAGOGLAR KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI



3<sup>rd</sup>.  
77-45.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TESHABAYEVA ZAMIRA SOBIROVNA

BO'LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGICLAR  
KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH  
TEKNOLOGIYALARI

*Monografiya*

- 13784/98 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA  
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
2-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA  
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

«MALIK PRINT CO»  
TOSHKENT – 2021

UO'K  
K BK

**Mas'ul muharrir:**

p.f.n., dotsent. **T.L.Xurvaliyeva**

**Tagrirlar:**

p.f.n. dotsent. **X.R.Sanaqulov**

p.f.d. **D.B.Mahmudova**

Mazkur monografiyada pedagogik oliy ta'lim maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirish bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni innovatsion jarayonlarni anglash, ularga nisbatan kasbiy pozitsiyani shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarni qaror toptirishning nazariy asoslari, kasbiy motivatsiyani shakllantirishga oid xorijiy tajribalar hamda bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning amaldagi holati tizimli tahlil etilgan.

Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishning didaktik tizimi mazmuni va mohiyati mavzu doirasida aniqlashtirilgan. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish modeli yaratilgan hamda tamoyil va texnologiyalari aniqlashtirilgan.

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining 2021 yil 30 noyabrda 6-sonli qarori bilan nashr etildi*

ISBN

## SO'Z BOSHI

Jahonda ta'limning globallashuvi (globalization of education) natijasida yagona ta'lim makonini yaratish, uning tarkibiy tizimlari orasidagi tafovutni kamaytirish an'anasini kuzatilmogda. Rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash mazmunini kasbiy kompetentlik va motivatsion omillar vositasida takomillashtirish hamda jamiyatning o'zgaruvchan talablaridan kelib chiqadigan ijtimoiy buyurtmani to'laqonli bajarish, xususan, oliy ta'lim sohasidagi muhim vazifalarni zamon talabi darajasida hal etish, aqlan yetuk, sohadagi innovatsion jarayonlarni zudlik bilan o'zlashtirishga qodir mutaxassislarni tayyorlashga ustuvorlik berilgan. Shuningdek oliy pedagogik ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy motivatsiyasini shakllantirish, innovatsion jarayonlarni anglash, ularga nisbatan kasbiy pozitsiyani shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarni qaror toptirish bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning bir qancha ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarida kasbiy motivatsiyani shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmogda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar bo'lajak mutaxassislar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning eng samarali shakli, bevosita, o'quv jarayonining mazmuni ekanligini ko'rsatmogda. Maktabgacha ta'lim tizimi ta'limning boshqa bosqichlaridan ob'ektaga nisbatan o'ziga xos pedagogik va psixologik yondashuvni talab qilishi bilan farqlanadi. Ilmiy tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida o'quv jara-



yonini bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablari asosida amalga oshirishni taqozo etadi.

Respublikamizda oliy pedagogik ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish, zamonaviy ehtiyojlarga mos yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash, erishilgan ilmiy natijalarni maktabgacha ta'lim amaliyotiga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish kabi vazifalar ta'lim tizimi sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda mavjud me'yoriy xujjatlar, o'quv reja va dasturlar mazmuniga maktabgacha ta'lim yo'nalishiga oid bilim va mahoratni rivojlantirishga undaydigan tashkiliy o'zgarishlar kiritish muhim ahamiyat kasb etayotganligini ta'kidlash joiz. Davlat va jamiyatning maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib oliy ta'lim mazmunini ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishiga mos holda takomillashtirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozorida o'z o'mini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"<sup>1</sup> vazifasi ko'rsatilgan. Demak, oliy ta'lim mazmunini optimallashtirish hamda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishga e'tiborni qaratish muhim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сон Фармони.// Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон

yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2016 yil 29 dekabrdaqi PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.



# I-BO'LIM

## BO'LAJAK TARBIVACHI-PEDAGOGIAR KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

### 1.1-§. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunining 39-moddasida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari: bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi; pedagogik etkaga rioya etishi, bolaning shaxsi va qadriyatini himoya qilishi; o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart" ekanligi belgilab qo'yilgan [1]. Darsda, qat'iyat, uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim bosqichida o'qituvchi o'ziga xos talab va ehtiyojlari bilan ajralib turadi. Mam-lakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-son qaroridan keyin ta'lim tizimining quyi bo'limiga e'tibor kuchaydi. So-naning moddiy texnika bazasi, o'quv-metodik ta'minotini zamonaviy talablarga moslashtirish bo'yicha muntazam ish olib borilmoqda. Biroq tizim uchun malakali va innovatsion jarayonlarni zudlik bilan o'zlashtirishga qodir mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi hamon dolzarb bo'lib turibdi. Mu-taxassislarni tayyorlashda kasbga bo'lgan qiziqishni oshirish, xususan, raqobatbardosh kadr sifatida faoliyat yuritishlari uchun bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish lozim.

Respublikamizdagi barcha pedagogika oliy ta'lim muassa-salarida maktabgacha ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlanadi. Talabalarining nazariy va amaliy bilim olishlari

uchun zarur imkoniyatlar yaratilmoqda. Amaldagi o'quv-motivatsiya hujjatlari, o'quv reja, fan dasturlarida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni kelgusi faoliyatga tayyorlashda kasbiy motivatsiyani shakllantirish nuqtai nazaridan muayyan o'zgartirishlar qilishni taqozo qiladi. Ma'lumki, kasbiy motivatsiyani shakllantirishda motivatsiya omillaridan biri hisoblanadi. Motivatsiya muayyan xatti-harakatlarga undaydigan, unga rag'bat beradigan kuchdir. "Motivatsiya" so'zi lotincha "move" so'zidan olingan bo'lib, "harakatlanish", "undamoq" ma'nosini anglatadi. Motivatsiya insonning psixologik xarakteri, xulq-atvori, faolligi va muayyan maqsadga yo'nalganligini anglatadi. Motivatsiya psixologik tushuncha sifatida murakkab hodisadir: u insonning hayot yo'lini belgilashda muhim omildir.

Odami faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlari ekan, aynan mana shu ehtiyoj insonni ma'lum bir faoliyatga qiziqishga turtki beradi. O'quv faoliyati mahsuli turli motivlar asosida yuzaga kelishini inobatga olsak, motivatsiya insonni kasb va hunar egallashda muhim omillardan biri ekanligi aydinlashadi. Motivatsiya insonning ruhiyati bilan uzviy bog'liq hodisadir. Shaxsning dinamik o'sishi nafaqat motivatsiyada namoyon bo'ladi, balki bu jarayonda ta'lim oluvchilarda o'quv-tarbiyaviy jarayonga bo'lgan qiziqish ham muhim ahamiyatga ega.

Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan inson hayoti va kamolotida kasb-hunarning ahamiyati borasida muhim mulohazalar bayon qilingan. Jumladan, Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning pedagogik qarashlarida ta'lim berish usullari va kasb-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyati, fiziologik, psixologik xususiyatlari va talablari borasida asosiy fikrlar ilgari surilgan.

Al-Xorazmiy "Bilim berishda ko'rgazmali vositalar, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash



usullardan keng foydalanish lozim. Tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berish muhim", deb ta'kidlaydi [38;74]. Darhaqiqat, talabalarga nazariy bilimlar bilan birga ko'rgazmali va tajriba metodlari, amaliy mashqlarni qo'llash, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish usullaridan foydalanish muhim va bu kasbiy motivatsiyani shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Al-Forobiy "ta'lim va tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakatlar: odat, malaka, faoliyat birlashib boradi; yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi va bu hunarga bo'lgan qiziqishni oshiradi", [38;31] degan fikrni aytadi. Demak, muayyan kasbni egallashni maqsad qilgan kishilarda kasbiy motivatsiyani oshirishda nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash, ular o'rtasidagi uyg'unlikni topish muhim nuqtalardan biridir. Buning natijasida kishida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar shakllanadi.

Abu Ali ibn Sino "Jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim", [39;45] degan pedagogik g'oyani ilgari suradi. Zamonaviy ta'limda ham hamkorlik texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalar hamkorlikda ishlash orqali o'quv ma'lumotlarini puxta o'zlashtiradilar.

Mirzo Ulug'bek ta'lim-tarbiyada mudarrisilarni odil va halol bo'lishga, o'z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini muntazam oshirib borishga, har bir mashg'ulotni yuksak saviyada o'tkazishga da'vat qiladi, ana shu bilangina o'quvchilarda bilim va hunar egallashga qiziqish oltirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi avval o'zini tarbiyalashi, bilim va malakalarni egallashlari lozim. [Qarang: 38;146-147]

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilardan o'z ustida mutasil ishlash, talabalarda soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda namuna bo'lishlari talab qilinadi.

Alisher Navoiy fikricha "Yosh avlodni xalqparvar, bilimli

va eng yaxshi fazilatlariga ega kishi qilib tarbiyalash muhimdir" [39;84-85]. Uning ma'rifat va ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyasi markaziy o'rinda turadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda insonparvarlik g'oyasi va o'quvchi shaxsini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish masalasi ustuvorlik qiladi. Bu bo'lajak pedagoglarning erkin faoliyat yuritishi, o'quvchi shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Allomalarning mazkur pedagogik g'oyalari negizida yoshlarning ilmi bo'lishi, kasb-hunarni puxta egallashlari uchun ularning qiziqishlari, ehtiyoj va intilishlarini e'tiborga olish, ta'lim beruvchi-o'qituvchining kasbiy mahoratni egallashi bilan bog'liq muhim talablar mavjud.

Psixolog olimlar tomonidan motivatsiyaga oid muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan hamda ularda "kasbiy motivatsiya" tushunchasiga aniqlik kiritilgan. Ularda "motivatsiya" tushunchasining ikkita ma'nosi izohlanadi:

1) motivatsiya motiv va omillarning yig'indisi bo'lib, alohida tizimlarni tashkil etadi va bosqichma-bosqich amalga oshadi;

2) motivatsiya insonni faollashtirishning harakatlar tizimi bo'lib, ta'lim jarayoni va mexanizmlarining takomillashuvidan iborat.

D.B.Elkonin fikricha, "Motivatsiya ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatida turli xil o'quv motivlariga yo'naltiradi. U ta'lim oluvchining bilishga bo'lgan va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji sifatida yuzaga chiqadi" [18;416].

O'quv faoliyati mazmunini qanday yo'llar bilan o'zlashtirish va o'quv vazifalarini bajarish hamda natijaga erishish motivlarga bog'liq bo'ladi. Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllanishida "Men" konsepsiyasi asosiy o'rin egallaydi. U talaba shaxsida ehtiyoj, bilim, ko'nikmalarini anglash va namoyon etishi vositasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Inson yoshlikdan turli kasb egalari ta'sirida ulg'ayadi. Vaqt



va tajriba kasbiy rivojlanishga ob'ektiv va sub'ektiv omil sifatida ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy rivojlanishning asosiy xususiyatlaridan biri, ijtimoiy-iqtisodiy talablaridir. Shuningdek, shaxs xususiyatlari va uning pedagogik imkoniyatlari ham kasbiy motivatsiyaga ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy motivatsiyaning turlicha bosqichlari talaba shaxsining qiziqishi va qobiliyati, o'zini rivojlantirishga intilishi bilan rivojlanib boradi. "Men" konsepsiyasi va vogeliklarni yuz berishi kasbiy rollarni ijro etishi bilan o'zaro bog'lanadi. Kasbiy motivatsiya talabalarning psixofiziologik xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir. Talabalarning psixofiziologik holati ehtiyojlarga qarab o'zgarishi mumkin. Ayniqsa, o'quv ehtiyojlari talabalarni kasbni puxta egallashlarida asosiy o'rin egallaydi.

L.I.Bojovich o'quv ehtiyojlarining rivojlanish yo'llarini aniqlagan va bu boradagi fikrlarini quyidagicha asoslaydi: "Atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabat tizimini o'zgarishi, yangi ehtiyojlar ta'lim oluvchida yangi faoliyat va xulq-avtorni o'zlashtirish bilan paydo bo'ladi, ehtiyojlarni kengayishi va paydo bo'lishi natijasida murakkablashib boradi, o'quv faoliyati ehtiyojlarining rivojlanishi motivatsion muhit tuzilishi, ya'ni o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ehtiyoj va motivlarni bir-biriga mos kelishidir". [26:351] Ijtimoiy motivlar ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatiga undashda juda muhimdir, chunki ijtimoiy motivlar ularda faoliyatga ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi.

Insonning faoliyatidagi ijobiy natijalar uning intellektiga bog'liq, biroq uning 70-80 foizi motiv asosida amalga oshiriladi. Ya'ni motiv insonning aniq maqsad sari boshqarishga yo'naltiradi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda maqsadni to'g'ri qo'yish va unga erishishda izehil harakatlanish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Chunki maqsad to'g'ri qo'yilsa va unga intilish bo'lsa, natija samarali bo'lishi kafolatlanadi.

A.N.Leontev insonning bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib, motivatsiyani ichki va tashqi turlarga ajratadi. Agarda motivatsiya tashqi bo'lsa, uning

o'ziga yarasha ijobiy hamda salbiy tomonlari mavjud bo'ladi. Ma'lumki, raqobatli motivatsiya ta'lim jarayonida juda keng qo'llaniladi hamda o'quv jarayonida ijobiy natijalar ko'rsatadi. [Qarang: 51:92]. Raqobatli motivatsiya ta'lim jarayonida ko'zga tashlanadigan vaziyat bo'lib, bunda talabalar doimo bir-biridan orqada qolmaslikka intiladilar. Tashqi motivatsiya o'quv jarayonida aniq bir maqsadga yo'naltiriladi. Tashqi motivatsiya manbalari ta'lim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash, majburiyat va mas'uliyatni his etishga yordam beradi. Ye.S.Shelestova "Kasbiy motivatsiya talabalarning kasbni puxta egallashida asosiy ichki omildir. Yuqori darajadagi motivatsiya talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentlikning samarali shakllanishining asosidir. Motivatsiya insonni maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan faoliyatini amalga oshishda muhim ahamiyatga ega", [116: 648-651-bet.] degan fikrni aytadi. Motivatsiya o'quv jarayonida talabalar faoliyatini faollashtiradi, ularda hissiy-irodaviy kuch, o'ziga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda o'quv faoliyatini samarali tashkil etish taqozo etiladi, agarda ta'limiy vaziyatlarda muvaffaqiyatsizlikka uchramasalar, ular kelajakda o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko'rsata oladilar. O'quv topshiriqlari berilganda, talabalarning imkoniyatlari va individual xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Talabalar o'zining va boshqalarning faoliyatlarini tahlil qila olishlari hamda o'zgalarga ta'sir ko'rsata olishlari zarur.

Barcha motivlar ham o'quv faoliyatiga birday ta'sir qilmaydi. Bittasi yetakchi motiv, qolganlari esa ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Inson hayoti faoliyatidan iborat bo'lib, barcha psixik jarayonlar va hodisalar ketma-ket ravishda motiv bilan bog'liq holda yuz beradi. Motiv, odatda, insonni muayyan faoliyatga undovchi, yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi kuch sifatida yuzaga keladi.

Q.Turg'umov "Motivatsiya shaxsning nima uchun ma'lum



vaqtda boshqa fikr va harakatlarni emas, faqat shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishidan iborat mantiqiy operatsiyadir" -degan ta'rifni beradi. [87;74 bet]

Talabalarining o'zini-o'zi anglashi qobiliyati motiv va gadeyriyatlar bilan belgilanadi. Talabalar turli nizoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmasiga ega bo'lishi, ijtimoiy munosabatlarda fikr va qarashlarni bildirib olishlari lozim. Ularning turlicha qarashlar asosida yechimlarni qabul qilishlari, ixtiyoriy va maqsadga yo'nalgan holda harakat qilishlari kasbiy motivatsiyadan ko'zlangan maqsadga mos keladi.

Tadqiqotchilarning motiv va motivatsiya borasidagi fikrlariga asoslangan holda, quyidagi mulohazalarni aytish mumkin: talablardagi bilish motivlari, bevosita o'quv faoliyati mazmuni hamda uni bajarish jarayoniga bog'liqdir. Ushbu motivlar yangi bilim va o'quv ko'nikmalarini o'zlashtirishga asoslanadi. Bunda bilim olishga qiziqish aniqlanadi, qiziqari dalillar, birinchi deduktiv xulosalar, hodisalarning o'ziga xos tomonlari, nazariy tamoyil va boshqalar tahlil etiladi. Bilish motivlari ta'lim olishda harakat bilan ifodalanadi. Natijada, talabalar bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish va takomillashtirishga intiladilar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy kompetentli kadrlar sifatida tayyorlash yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

B.B.Ma'murov tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyatini baholash mezonlari yaratilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarining ko'rsatkichlari tizimlashtirilgan. [Qarang: 57;71] Bilim olish motivatsiyasi talabalarni harakati bilan asoslanadi, ularning istaklari va tabiiy qiziqishlariga bog'liq bo'ladi. Motivatsiyaning asosiy belgilaridan biri o'quv faoliyatini o'zi tanlashda namoyon bo'ladi.

N.Sh.Azimov talabalarni hamkorlik faoliyatiga tayyor-

lash, unga nisbatan ehtiyoj, mayl, qiziqish va motivatsiyaning mavjudligi, hamkorlikdagi faoliyatda muomalaga kirishish usullari, o'qituvchi bilan talabalarining o'zaro ta'sir o'tkazish shakllarini asoslab bergan. [Qarang: 9;127]

N.M.Ahmedovanning tadqiqot ishlarida integratsion yondashuvga ustuvorlik berish asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmunining tarkibiy qismi hisoblangan kommunikativ va metodik kompetensiyalar, kasbiy tayyorgarlik omillari, amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, bo'lajak chet tili o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarlik faoliyati funksiyalari aniqlangan. [Qarang: 20;51] Bunday holatlarda ta'lim jarayoni sub'ektlaridan o'z ustida ishlash, tashqi ta'sirlarning natijaviyligi oshadi, o'quv-tarbiyaviy ishlarga faol transformatsiyalanish jarayoni yuz beradi. Mazkur shartlardan kelib chiqib, talabalar va o'qituvchilar jamoasini boshqarish, o'quv faoliyati motivatsiyasini talabalarining o'zlari rivojlantirishlari talab etiladi.

Talabalarda psixologik-pedagogik kompetentlikni oshirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ham maqsadga muvofiq. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi.

F.B.Valixov jaeva oliy o'quv yurti talabalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlashning holati, pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini aniqlagan. [Qarang: 28;19] Professor-o'qituvchilar talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish uchun ularning faol ishtirokini ta'minlashlari, o'quv jarayonini yanada takomillashtirish uchun o'z-o'zini anglash, nazorat etish, o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli faoliyat, baholash hamda o'z faoliyatini tuzatishga imkon berishlari talab qilinadi.

Sh.A.Sodiqova maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni hamda



ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etuvchi omil va mezonlarini ishlab chiqqan. Talabalarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish ko'nikma va malakalarini baholovchi mezonlarni asoslagan va ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tayyorlashning shakl, metod hamda vositalarini aniqlagan. [Qarang: 78; 139] Oliy ta'lim tizimida bo'lg'usi tarbiyachilarni kasbga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni o'rnatish; o'quv jarayonida talabalar faqatgina bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish ob'ekti emas, balki ularni shaxs sifatida rivojlantirishni ham ko'zda tutadi.

F.Haydarov va X.Abdukarimovlar tomonidan motivatsiyani shakllantirish mexanizmlari quyidagi nazariy tushunchada ifoda kelinadi: "Motivlar sirasiga sevimli o'qituvchisiga taqlid qilish; kasbiy-mutaxassislik yo'nalishidagi fanlarga qiziqish, kasbga xos amaliy ko'nikmalar va xulq-atvorning shakllanishi; o'ziga xos kasbiy pedagogik mahoratning shakllanishi; kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talabchanlikning o'rtib borishi; kasbga xos bilim, qobiliyat, kasbiy izlanish va ijodkorlikka xos faollikning o'rtib borishi; tahlil va o'z-o'zini tahlil etishlar kiradi" [106; 131]

Motivatsiya o'quv faoliyati jarayonida talaba shaxsining psixik jarayonlarini yanada rivojlantiradi. Uning ta'sirida yanagi turdagi faoliyatlar paydo bo'ladi. O'quv faoliyati shaxsning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir.

Tadqiqot jarayonida talabalarda "BSJFO" o'quv moduliga bo'lgan qiziqish darajasini aniqlash ko'zda tutilgan edi. O'quv modulining mazmuni, yangi bilimlarni o'zlashtirish, vazifalarni yechish usullari, natijalarni baholash va yutuqlarni tahlil etish tadqiqotimizning asosiy yo'nalishi sifatida belgilab olindi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning asosiy muvaffaqiyati professor-o'qituvchi hamda talabaning o'zaro munosabati hamda o'zini rivojlantirishga qaratilganligidatir.

N.A.Muslimov fikricha, "Ta'lim oluvchi navbatdagi ko'nikmalar to'plamini shakllantirish yo'li bilan bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki kompetensiyalarni shu yerda va hozir singdirib borishi kerak. Shuning uchun kompetensiyaviy yondashuv natijasida quyidagilar ta'minlanishi lozim:

o'z-o'zini harakatga keltirish manbai sifatida ta'lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo'lishi;

yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o'quv faoliyati jarayonida o'z-o'zini tashkillahtirish qobiliyati;

har bir shaxsga o'zining u yoki bu o'quv materialini o'zlashtira olish darajasini aniqlashga imkon beruvchi o'z-o'zini differentsiatsiyalash (o'z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;

ta'lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga molik bo'lgan natijalarga erishishlik;

ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari orasidagi o'zaro bog'langan samarali faoliyatning mavjudligi.

Shuningdek, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limning metod, texnologiyalari ma'lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarni boshqa bir sharoitlarga oson ko'chishi va moslashuvchanligini ta'minlashi kerak, ya'ni "noadaptiv faollik" xususiyatini hosil qilishi kerak". [64:8]

Talabalarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ularning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, o'z ustida ishlash usul hamda shakllarini o'rgatish, o'zini rivojlantirishga zaruriy sharoitlarni yaratish, talabalar jamoasi o'rtasida ma'naviy sog'lom psixologik muhit yaratish, talabalar bilan individual ishlashni tashkil etish, rejalashtirish, o'z-o'zini takomillashtirishning maqsad va vazifalarini belgilash, turli faoliyatga talabalarni jalb etish, o'zini-o'zi rivojlantirishning ilg'or tajribalari bilan tanishtirish, o'quv faoliyatida kasbiy motivatsiyani talabalarining o'zlari mustaqil rivojlantirishga turtki berish, talabalarga kasbiy rivojlanishlariga muntazam yordam ko'rsatish samara beradi.



Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishga ijtimoiy jarayon sifatida ham qarash mumkin. Chunki bo'lajak tarbiyachilar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etar ekan, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlaydilar. Tadqiqot davomida motivatsiyani shakllantirishning muhim omillari aniqlandi. Ularga quyidagilar kiradi:

**makro omillar:** jamiyat, ta'lim tizimi hamda ta'lim muassasalari;

**mikro omillar:** ustozlar, tengdoshlari;

**ob'ektiv omillar:** shaxsning jamiyatdagi o'rni va intilishi; **sub'ektiv omillar:** o'quv jarayoni.

Kasbiy motivatsiya sub'ektiv va ob'ektiv qismlardan tashkil topadi va ularga moddiy va nomoddiy omillar ta'sirini kuza-tish mumkin. Kasbiy motivatsiyaning shakllanishida omillar-ning o'zaro ta'sir jarayoni yuz beradi. Bo'lajak tarbiyachilar ijtimoiy buyurtmani bajaruvchi mutaxassis sifatida tayyorla-nadi. Kasbiy motivatsiya talabalarning individual va shaxsiy sifatlarini, ya'ni ularning yoshi, jinsi va qadriyatlarini inobat-ga olishni taqozo etadi. Kasbiy faoliyat kasbga yo'naltirishga ham bog'liq bo'lib, bunda talabalarning moyilligi, ehtiyoji va istaklari muhim ahamiyatga ega.

Motivning ijtimoiy va ijobiy shakllari ham farqlanadi. Shaxsning atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatga kirishishi, ularni qo'llab-quvvatlashi va hurmatini qozonishga intilishi jarayonida ijtimoiy motiv ko'zga tashlanadi. Ijobiy motivlar talaba shaxsida turlicha namoyon bo'ladi. O'zini tan oldi-rishga urinish, lider bo'lish istagi, boshqalarga ta'sir ko'r-satish, jamoda yetakchi bo'lish va boshqalar ijobiy motiv ko'rinishlaridir. Ijtimoiy hamkorlik motivlarida nafaqat o'zgalar bilan muloqotda balki o'zaro ta'sir ko'rsatishga, uni anglashga intiladilar. O'qituvchi bilan hamkorlik va o'zaro munosabada bo'lishning usul, shakllarini tahlil qiladilar. Tengdoshlari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni takomillashtirib boradilar. Ijtimoiy

motivlar talaba shaxsini tarbiyalashning asosi bo'lib, asta-sekin jamiyat a'zosi sifatida o'zini takomillashtirishga harakat qiladi.

Bilish va ijtimoiy motivlar turlicha darajada bo'lishi mumkin. Talabalarining pedagog sifatida shakllanishida ichki va tashqi motivlari muhim o'rin tutadi. Ulardagi ichki motivlar bevosita o'quv faoliyatiga bog'liq bo'lib, faoliyat jarayoniga va natijasiga qiziqish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish, o'zi-ning shaxsiy sifatlari va qobiliyatini namoyon etish natijasida amalga oshadi. Tashqi motivlar esa, qachonki faoliyat jarayoni uzoq muddat amalga ohsa namoyon bo'ladi. Talabalik burchi va majburiyati, tengdoshlari orasida yutuqlarga erishishdagi quvonch hissi tashqi motivning namoyon bo'lish shakllaridir.

Talabalar kasbiy motivatsiyasi quyidagi yo'nalishlarda shakllanadi:

### 1. Bilish motivatsiyasi:

- yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'nalganlik, ya'ni dalil, hodisa va qonuniyatlardan xabardor bo'lish;
- bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga erishish;
- mustaqil bilim olish, qo'shimcha bilimlarni o'zlashtirish, pedagog-tarbiyachi sifatida o'zini takomillashtirishning ijtimo-y dasturini tuzish.

### 2. Ijtimoiy motivatsiya:

- kengaytirilgan ijtimoiy motivlar: burch va mas'uliyat hissi;
- bilim olishni ijtimoiy ahamiyatga egaligini tushunish;
- ijtimoiy yoki pozitsitiv motivlar: atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga intilish, ularni qo'llab-quvvatlashi;
- ijtimoiy hamkorlik motivlari: boshqalar bilan birlikda turlicha ta'sir ko'rsatish usullariga yo'nalganlik.

### 3. O'quv motivatsiyasi:

- maqsadli faoliyatni tashkil etish;
- o'quv jarayonida erkin va mustaqil harakat qilish;
- tashqi motivatsiyani ichki motivatsiyaga aylantirish;
- motivatsiyaning internal va eksternal motivlarga aylantirish.



Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida motivatsiyaning shakllanishi bevosita shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari zaminida paydo bo'la-di deb xulosa qilish mumkin. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ularning qiziqish va maylini inobatga olish zarur. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar motivatsiyasining shakllanishi ularda kasbiy kompetensiyani ham rivojlantiradi. Ular orasida o'zaro bog'liklikni ta'min-lashi pedagogik oliy ta'limda bo'lg'usi tarbiyachi faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishiga nisbatan ishonchni oshiradi. Hamda talabalarda muvaffaqiyatga erishishda mas'uliyat hissini ham tarbiyalab borish lozim.

Kasbiy motivatsiya yuqorida keltirganimizdek, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Hamda quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi:

- motiv, ehtiyoj, qiziqish va kasbga yo'naltirish;
- kognitiv faoliyat (maktabgacha ta'lim sohasiga xos nazariy-bilim, ko'nikma, malakalarni egallash);
- refleksiv-korreksion komponentlar (o'zini bilish, anglash, tushunish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini anglash, ularni takomillashtirishga intilish);

➤ o'quv jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kutilmagan vaziyatlardan chiqish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;

➤ maqsadga erishishda qat'iylilikni namoyish etish va turli xil pedagogik vazifalarni bajaranda o'zidan qoniqish hosil qilishga pedagogik sharoit yaratish.

Talabalarda bo'lg'usi pedagogik faoliyat uchun kasbiy motivatsiyani shakllantirishning asosiy omili ta'lim-tarbiya jarayonida tashkiliy-metodik sharoitlarini tizimli tashkil etish hisoblanadi.

## 1.2.8. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish bo'yicha xorij tajribasi: global aspekt

Tadqiqotda xorijiy olimlarning bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishga doir tadqiqotlari o'rganildi va tahlil qilindi. Ma'lumki, ehtiyoj individ faolligining shakli hisoblanib, nimagadir muhtojlikni qondiruvchi holatdir. Ehtiyojlar anglangan (ixtiyoriy) va anglanmagan (ixtiyorsiz) ravishda yuz beradi. Agarda ehtiyoj anglangan bo'lsa, u insonni faoliyatga undaydi.

Shaxsning ehtiyoji, motiv, motivatsiya, kasbiy motivatsiyaning paydo bo'lishi hamda shakllanishiga doir xorijiy tajribalarga to'xtalib o'tamiz.

G.Myurrey fikricha, "Ehtiyojlar shaxsning muvaffaqiyatga erishishida muhim hisoblanib, diqqatning bargarotiligi va ustunligini ta'minlaydi. Ehtiyoj insonni zararli ta'sirlar va muvaffaqiyatsizlikdan asraydi". [59;164] Motiv anglangan ravishda ehtiyojning sub'ektiv namoyon bo'lishidir. Ehtiyoj ob'ektiv, motiv esa sub'ektiv jarayondir.

Ye.P.Ilin ehtiyoj va motivlarning o'zaro bog'liqligini quyidagicha tavsiflaydi: "Ehtiyoj va motivlar orasida bevosita munosabat mavjud. Ehtiyoj motivlarning paydo bo'lishiga turki beradi, ehtiyoj motivning bir bo'lakidir". [44; 512] Olimning fikricha, ehtiyoj va motiv o'rtasidagi hodisa bir xil bo'lmaydi. Masalan, ehtiyoj bir nechta motivlarni paydo qilishi, motiv ham bir qancha ehtiyojni yuzaga keltirishi mumkin.

D.Mak-Klelland motiv va motivatsiyani uchta ko'rinishda namoyon bo'lishini asoslaydi:

1. Motivning paydo bo'lish sabablari.
2. Individual ravishda kashf qilingan qarashlar.
3. Affektiv vaziyatlardagi turli xil o'zgarishlar. [98;671]

Talabalarda motivning paydo bo'lishida professor-o'qituvchilarning shaxsiy namunasi, kasbiga bo'lgan fidoyiligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan o'qituvchi kasbiy ma-



horati va kompetensiyasini yuqoriligi bilan talabalarga o'rnatishga intilishi lozim.

J.R.Nyutten shaxs ehtiyojlarini uch turda namoyon bo'lishini asoslagan:

maqsadga yo'nalgan;  
moslashuvchanlik;  
geteraxiya.

Ehtiyojlar atrof-muhitdagi vaziyatga bog'liq bo'lib, u individ faoliyatiga asos bo'ladi. Mabodo, vaziyat tahlilati tus olsa, individ o'zini himoyalashga harakat qiladi. Agar ijtimoiy sharoitlar turg'un bo'lmasa, u shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga urinadi. Agar barchasi me'yorda bo'lsa, o'z-o'zini rivojlantirishga harakat qiladi. Insonning moslasha olmasligi natijasida uning harakatlari atrof olamga muvofiqlasha boshlaydi, biroq o'z rejalari, loyihasi, ehtiyojlarini vaziyatga qarab moslashtirgan holda o'zini amaliy hayotda namoyon qiladi. Geteraxiya turida ehtiyoj turlari bosqichini tug'dirishi kerak emas. Insoniyatning motivatsiyalari ikki yo'nalishdagi tendensiyalarda namoyon bo'ladi: birinchidan, ehtiyojlar shaxs xulq-atvorini o'zi aniqlaydi, o'zini faollashtirish, o'zini himoyalash, o'z-o'zini saqlash, yutuqlarga erishish yo'nalishi; ikkinchidan, ehtiyojlarining o'zaro hamkorlik, o'zini ko'rsatish va sheriklik munosabati yo'nalishi. Ular uchta darajada bir-biriga bog'liq bo'ladi: psixofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy. Ehtiyojlar o'zaro transformatsiyalashuvi mumkin, ya'ni maqsad va rejalarni bir-birini to'ldiradi hamda shaxsiy qadriyatlari bilan uyg'unlashadi. [Qarang: 71; 608]

U.Djems motivatsiya anglangan holda muammo yechimini hal etishning muhim omili ekanligini hamda istak va maqsadni shakllanishi, harakat qilishga intilishda motivning ham bevosita bog'liq ekanligini asoslab bergan. [44; - 512 b.].

U.Mak-Dugallning ta'kidlashicha, "Motivatsiya instinkt negizida xulq-atvorni tug'ma manbai hisoblanadi". [91; 272b] Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakll-

lantirishda ularni pedagogik faoliyatga qiziqitirish, o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llash, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish muhim omil deyish mumkin.

Z.Freyd esa "Motivatsiya inson energiyasining modeli bo'lib, energiya xulq-atvorni transformatsiyalashuvi bilan namoyon bo'ladi" [89; 197b] deb ta'riflaydi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasining shakllanishi negizida odob-axloq me'yorlari ham takomillashib boradi va pedagogik imidj paydo bo'ladi.

G.Myurrey, E.Fromm, J.Nyuttenlar tomonidan ehtiyoj motivatsiyaning ichki manbai ekanligi, individning olam bilan munosabati, uning hayot davomida dastlabki tug'ma harakatlarni shakllanishi ilmiy asoslagan. [59; 164 b] Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari asosida motivatsiya ijtimoiy, shaxsiy va biologik ko'rinishda amalga oshadi degan fikrga kelish asosli.

Taniqli psixolog A.Maslou inson ehtiyojlarini turlarga ajratgan va ehtiyojlar piramidasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, "jismaniy ehtiyojlar inson hayotida eng muhimini sanaladi, chunki ovqatlanish, dam olish uchun qulay sharoit yaratilmasa, boshqa ehtiyojlarga o'rin qolmaydi. [58; 352-bet.] Ijtimoiy ehtiyojlar mulqot, o'zgalarni bilan o'zaro munosabat, boshqalarga qayg'u urish va do'stlik, hamkorlikdagi faoliyatda namoyon bo'ladi, agar ular qondirilmasa, shaxs ijtimoiy faoliyatida muammolarga duch keladi.

Nemis psixologi X.Xenxausen motiv va motivatsiya muammosini tadqiq etgan. Uning fikricha, "Motiv tushunchasi ehtiyoj, istak, mayl, xohish, qiziqish, moyillik va intilish kabi ma'nolarni anglatadi" [100; 392]. Olim mazkur tushunchalarning barchasi o'zgaruvchanligini ta'kidlab, harakatlarning aniq yo'nalganligi shaxsning maqsadga erishishida muhim komponent ekanligini asoslaydi.

E.Bern, K.Rodjers, A.Masloularning fikricha, "Motivatsiyani rivojlantirishning asosiy negizi "Men" konsepsiyasi hisoblanib,



u talaba shaxsida ehtiyoj, o'z bilim, ko'nikmalarini anglash va namoyon etish bilan yuzaga keladi" [25;432-bet.], [78;527-bet.], [58;400-bet.].

E.Frommning fikricha, "Insondagi ijtimoiy ehtiyojlar insonlar orasidagi aloqalar, ya'ni jamoaga munosabat, "biz" tushunchasini his qilish, yakalkikdan qochish; o'z-o'zini tan olish, o'zidan qoniqish va tushkinlikka tushmaslik; bog'liqlik, insonlarga ijobiy munosabatda bo'lish, takrorlanmas shaxs ekanligini his etish, madaniy va ma'naviy g'oyalarni ilgari surishdan iborat" [85; 327-bet.].

S.L.Rubinshteyn esa, "O'quv motivlari o'quv vazifalarni tushunish bilan bog'liq bo'lib, u tabiiy ravishda bo'lg'usi faoliyatga tayyorgarlik ko'rish va harakat qilish, o'zlashirilgan bilimlar va olamni anglash bilan namoyon bo'ladi. bilim-ga qiziqish bilan amalga oshiradi. Motivlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchining o'z kuchi va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda sinashga harakat qilishi, bilimlarini tajribadan o'lkazishi va shaxsiy muammosi sifatida uni bayon etishdir", deb ta'kidlaydi [76; 666-bet.]. Darhaqiqat, bo'lajak tarbiyachipedagoglar o'zining kuch va imkoniyatlarini yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda tashkil etilgan darslardagina namoyon eta olishlari mumkin. Shuning uchun tadqiqotimizda talabalarda motivatsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni ko'zda tutganimiz.

L.I.Bojovichning fikricha, "ijtimoiy motivlar ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatiga undashda muhim sanalib, ijtimoiy motivlar ularda faoliyatga ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi" [26; 352-bet.]. O'quv jarayonida talabalarda ijtimoiy motivlar ularning kasbiy moslashuviga ham ko'mak beradi. Ijtimoiy motivlar talabalar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar hamda o'qituvchi-talaba munosabatlaridagi demokratik yondashuv asosida paydo bo'ladi.

Talabalarda kasbiy xulq-avtorining namoyon bo'lishiga uchta asosiy motivatsiya omillari ta'sir ko'rsatadi:

1. Faoliyat manbai sifatida ehtiyoj va instinktlar.

2. Odob-axloq shakllanishining bosh sababi bo'lgan motiv.

3. Hissiyotlar, shaxsiy kechinmalar, odob-axloqni boshqarish. [27;320]

A.N.Leontev fikricha "Motiv amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilar o'qish kerakligini tushunadi, biroq bu ularda o'quv faoliyati bilan shug'ullanishni uyg'otmasligi mumkin" [40; 868-bet.]. O'quv faoliyati ta'lim oluvchilarda faqatgina bitta motivni paydo qilmaydi, yaxlit motivlar tizimi o'zaro ta'sir ko'rsatib, bir-birini mutanosib ravishda to'ldiradi. Motivlar ehtiyojga ko'ra insonni faoliyatga undaydi.

Barcha motivlar ham o'quv faoliyatiga birday ta'sir qilmaydi. Bittasi yetakchi motiv, qolganlari esa ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Inson hayoti faoliyattan iborat bo'lib, barcha ruhiy jarayonlar va hodisalar ketma-ket ravishda motivga bog'liq ravishda yuz beradi. Motiv, odatda, undovchi, faoliyatga yo'naltiruvchi jarayon hisoblanadi. Psixologik lug'atlarni tahlil etish natijasida "motivatsiya" terminini yuzasidan quyidagi mulohazalarga keldik: motivatsiya bu ichki hamda tashqi harakatlantiruvchi kuchlarning yig'indisi bo'lib, insonni faoliyatga undaydi, faoliyat shakllari va chegaralarini belgilaydi, aniq maqsadlarga erishishga yo'naltiradi. Motiv motivatsiyadan farq qilib, inson sub'ektiga tegishli bo'lib, uning shaxsiy sifatlari, aniq harakatlarni bajarishida ichki uyg'otuvchi kuch sanaladi.

A.N.Leontev, D.B.Elkonin, V.V.Davrydovlar motivlarni insonning bilimlarni o'zlashitirish jarayoniga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib, ichki hamda tashqi turlarga ajratgan. [40; 92.]

Ye.A.Vorotneva o'qitishda motivatsiyaning quyidagi turlarini shakllantirish zarur deb hisoblaydi:

kommunikativ;

lingvistik;

evristik;



ma'lumotlarni to'liq hajmda o'zlashtirish;  
meta-kognitiv;  
estetik. [Qarang: 29; 188]

A.K. Baymetov pedagogik faoliyat motivlarini uch guruhga ajratadi:

majburiyati motivlar;

o'qitayotgan o'quv predmetiga qiziqish;

bolalar bilan muloqotga kirishish. [Qarang: 18; 72]

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar o'quv jarayonida fanlarni o'zlashtirish bilan birga, amaliy ko'nikmalarni ham egallashlari lozim. Talabalarning kelgusi faoliyatida samaradorlikka erishish uchun kasbiy kompetensiyani shakllantirish oliy ta'limning muhim vazifasi hisoblanadi.

Tarbiyachilarning kasb tanlash motivlari va pedagogik oliy ta'limda o'qishga bo'lgan xohishlari turlicha bo'lib, ularning ayrimlari pedagogik faoliyatga mos kelmaydi. Ushbu muammo bo'yicha A.E. Shteynmes tadqiqot olib borgan va uning fikricha oliy ta'limda o'qiyotgan 30-45 foizgacha talabalar tarbiyachilik va o'qituvchilik kasbiga ijobiy munosabat bildirgan. 40 foizga yaqin talabalar qaysidir fanga qiziqqani uchungina topshirgan, biroq tarbiyachilik faoliyatiga qiziqish pastligi tasdiqlangan. 13-22 foizgacha talabalar o'qituvchi va tarbiyachi kasbiga ijobiy munosabat bildirmasdan, faqat kelajakda oliy ma'lumotli bo'lish bilan kifoyalanishini ma'lum qilgan. [Qarang: 53; 288] Bundan bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda faqat oliy ma'lumotli bo'lishga emas, balki fidoiy pedagog bo'lishga nisbatan motivatsiyani oshirish ustida ishlash zarur degan fikrga kelish mumkin.

Yaponiyalik olimlar Jiyung Xan (Jiyung Xan) va Hongbiao Yin (Hongbiao Yin) tomonidan o'qituvchi motivatsiyasiga sabab bo'luvchi omillar va uning ta'lim samaradorligiga ta'siri, o'qituvchi va talabalar motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik masalalari ilmiy tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotchilar turli fanlarni o'rganishda motivatsiyaning o'rti hamda baholash vositalari

xususida o'z qarashlarini bayon etishgan. O'quv motivatsiyasi o'qitish samaradorligini belgilovchi omil ekanligi aniqlangan. Ularning ilmiy g'oyasida o'quv toshirig'larini tayyorlash, faol o'quvchilarni rag'batlantirish hamda o'qitish natijalarini yaxshilash uchun amaliy strategiyalar ishlab chiqish muhimligi ilgari suriladi. [....]

AQShlik olimlar Inusah Salifu (Inusah Salifu) va Yusef Seyram Agbenega (Joseph Seyram Agbenega) o'qituvchi motivatsiyasi konsepsiyasi, shaxsiyat va amaliyot, o'qituvchi motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan va o'qituvchilik kasbining o'ziga xos tomonlari hamda talabaning motivatsiyasini oshirish usullari haqida farashlarni bayon etishgan. Ularning fikricha, "O'qituvchi motivatsiyasi tarkibiga ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida o'qituvchining xatti-harakatlari, unga ta'sir etuvchi psixologik jarayonlar kiradi, motivatsiyani uyg'otish uchun o'qitish va maqsadga erishishga imkon beradigan vaziyatlar yaratilishi zarur". [45; 58]

Finlyandiya talabalar bilan uchta bosqichda subbat o'tkazilishi ularning kasbga bo'lgan motivatsiyani aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan:

1-bosqichda nega aynan shu soha mutaxassisi bo'lishni maqsad qilgani, sabablari, bo'lajak kasbi haqida ma'lumotga egaligi so'raladi;

2-bosqichda so'nggi bosqich talabalaridan nega ta'lim olishni davom ettirishlarini hojlayotganliklari aniqlashtiriladi;

3-bosqichda ta'lim muassasasi rahbariyati maktab yoki bog'chada ishlashni istagida bo'lgan bitiruvchilar bilan subbat o'tkaziladi.

Aynan uchinchi bosqichda bitiruvchida kasbiy motivatsiyaning mavjudligi, kommunikativ ko'nikma, malaka, hissiy barqarorlik va sezgirlik kabi xususiyatlar tekshiriladi. Natijada, 30 foiz bitiruvchilar subbatdan muvaffaqiyatli o'tadilar va birinchi urinishdayoq pedagogik faoliyatini boshlaydilar. [45; 73-78]



Germaniyada pedagogik ta'lim dual ta'lim shaklida tashkil qilingan. Dual ta'limning boshqa shakllardan farqli jihati talabarlarda kasbiy motivatsiya juda yuqori bo'lishi va ish faoliyatida mustaqil bo'lishi bilan belgilanadi. Statistika ko'ra, talabarlarda kasbiy ko'nikmalarni egallash 44-46 foiz va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari 43-45 foiz ko'rsatkichni tashkil etadi. Dual ta'lim an'anaviy o'qitish shaklidan ko'proq amaliyotga asoslanganligi bilan farqlanadi.

Fransiyada bo'lajak pedagoglarga pedagogik texnologiya va ta'lim metodlari haqida ko'proq ma'lumot berishga harakat qilinadi. Talabalar nafaqat metodning nazariy jihatlarini o'rganadilar, balki amaliyotda qo'llash malakalariga ham ega bo'ladi. Bolalar psixologiyasimashg'ulotitajribalipsixologlar tomonidan katta guruhlarda diskussiya shaklida o'tkaziladi. Talabalar bola rivojlanishining psixologik xususiyatlari haqida nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar. Turli psixologik vaziyatlarni hamkorlikda yechadilar. Fransiya pedagogik oliy ta'limida amaliy mashg'ulotga jiddiy e'tibor beriladi. Ikki yil davomida bo'lajak pedagoglar maktablarda muntazam ravishda dars olib boradilar. Har bir talabani darsga tayyorlash, ular bilan individual tarzda ishlash uchun ustoz-o'qituvchi birlashtiriladi. O'quv predmeti yakunida uzluksiz pedagogik amaliyot o'tkaziladi. Muvaffaqiyatli ravishda amaliyot o'taganlarga yakuniy imtihonga kirishga ruxsat beriladi.

Koreya pedagogik oliy ta'limida ma'ruza va seminar mashg'ulotlaridan ko'ra, asosan, talabalar mustaqil ravishda diskussiyada chiqishlar qiladilar, trening va mashg'ulotlarni o'zlarida tashkil qiladilar. O'quv mashg'ulotlari intensiv ta'lim dasturiga ko'ra tashkil etiladi.

Buyuk Britaniyaning oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejadagi fanlar mazmuni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'qish istagi, o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash, o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalar hajmini kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, talabarlarda pedagogik faoliyatni tashkil etish, rejalashtirish,

amaliyotga joriy etish, ish natijalarini tahlil etish, baholash malakalari hamda kasbiy kompetensiyani shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. O'quv jarayonida talabarlarda mu-loqot vositalaridan, ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish, ya'ni tahlil, sintez, baholash, bashoratlash, muammolarning ijodiy yechimini topish malakalarini shakllantirishga ustuvorlik beriladi.

Umuman, tadqiqot davomida o'rganilgan motivatsiyani shakllantirish bo'yicha xorijiy tajribalar bilan malakatimiz pedagogik ta'lim tizimidagi mavjud holat quyidagi jadvalda solishtirildi (1.1-jadval)

**Kasbiy motivatsiyani shakllantirish: xorijiy va mahalliy tajriba**

| O'zbekistonda | Xorijda         | Oliy ta'lim jarayoni                                                                                                                                                                                                           |
|---------------|-----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| +             | AQSh            | O'qituvchi motivatsiyasi tarkibiga ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida o'qituvchining xatti-harakatlari, unga ta'sir etuvchi psixologik jarayonlar, o'qitish va maqsadga erishishga imkon beradigan sharoitlar yaratish zarur |
| -             | Finlyandiya     | Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan uchta bosqichda subbat o'tkaziladi                                                                                                                                                  |
| -             | Germaniya       | Dual ta'lim asosida o'qitiladi                                                                                                                                                                                                 |
| +             | Fransiya        | Ikki yil davomida bo'lajak pedagoglar maktablarda muntazam ravishda dars olib boradilar. Har bir talabani darsga tayyorlash hamda individual tartibda ishlash uchun ustoz birlashtiriladi                                      |
| -             | Koreya          | Intensiv ta'lim dasturiga ustuvorlik berilgan                                                                                                                                                                                  |
| -             | Buyuk Britaniya | O'quv-rejadagi fanlar mazmuni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'qish istagi va o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar hajmini kengaytirishga qaratilgan                                         |



Demak, mamlakatimiz pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy motivatsiyasini yuzaga kelishida xizmat qiladigan o'quv-metodik ishlar AQSh va Fransiya mamlakatlaridagi ayrim jihatlarga mos keladi.

Oliy ta'lim tizimida motivatsiya bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishga turtki berishi lozim. Motivatsiya kasbiy faoliyatga qaratilgan bo'lib, shaxsning xulq-atvori, harakatlari maqsad sari yo'naltiradi, shaxsning ichki imkoniyatlarini rivojlantiradi. Kasbiy motivatsiya kasbiy vazifalar va sharoitga mos ravishda o'zgaruvchan bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish uchun quyidagi omillar asos bo'ladi:

1. Pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuv.
2. Insonlar bilan samarali muloqotda bo'lish.
3. O'z ustida ishlashni takomillashtirish imkoniyatlari.

Pedagogik motivatsiya bo'lg'usi tarbiyachilar kasbiy ehtiyoj, qiziquvchanligini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga undaydi.

Yuqorida olimlar tomonidan keltirilgan g'oyalar va xorijiy tajribalardan motivatsiya talabalarida kasbga bo'lgan qiziqishni oshirishga, mazmunli ta'lim olishga, yangi bilimlarni idrok etish va o'zlashtirishga yordam beruvchi muhim omil degan asosli xulosani keltirish mumkin.

### **1.3-§. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliyoti: tavsif va tahlil**

Globallashuv davri dunyodagi oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari oldiga kasbiy ta'lim berishda juda katta talablar qo'yilmoqda. Zamonaviy mutaxassislar nafaqat umumdaniy va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishlari, balki muvaffaqiyatga erishish ehtiyojlarini his qilishlari, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga katta zarurat mavjudligini his qilish-

lari lozim.

Kasbiy motivlar faoliyatga undovchi bo'lib, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda karera, jamiyatda o'zining o'rniga ega bo'lish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Harakat motivlari talabani o'zini-o'zi takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy motivlar esa bo'lajak tarbiyachilarni jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlariga ko'maklashadi. Motivlar o'quv faoliyatiga undash bilan birga, maqsadga yetish uchun yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari talabalar tomonidan tanlanib, ular talabani maqsad, qiziqishi, kelajak rejalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Tadqiqotimizda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiya va kasbiy yo'nalganligini, ta'lim jarayonining didaktik ta'minoti hamda pedagogik shart-sharoitlarini taxlil qilish maqsadida tajriba-sinov dasturi, usul, vositalari belgilab olindi. Tajriba ob'ektlari sifatida tajriba-sinov ishlari Andijon davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Toshkent ta'lim yo'nalishi 1, 2-kurs talabalari tanlab olindi. O'rganuvchi tajriba-sinov ishlari uchta yo'nalishda olib borildi:

1. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy yo'nalganlik va motivatsiyaning shakllanganligi subbat, anketa-so'rovnomma, testlar asosida o'rganildi va tahlil etildi (1-Illova).
2. O'quv reja va dasturlar mazmunida kasbiy motivatsiyani shakllantirishning holati tahlil etildi.
3. Oliy ta'lim muassasasida auditoriyadan tashqari tadbirlar va o'quv jarayonida motivatsiyani shakllantirishning mavjud holati o'rganildi.

Anketa-so'rovnomalar aynan bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini aniqlashga qaratildi. So'rovnomalarda quyidagi mazmunga, ya'ni:

- bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbga qiziqishi;
- MTTda pedagogik jarayonni tashkil etish, sahnalashtirish va ijodiy faoliyatni tashkillashtirish ko'nikmalari;



- Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar psixologiyasini bilish;

- pedagogik faoliyat jarayonini tashkilga doir ko'nikma, malakalarga egaligi;

- tarbiyachilik kasbining talabani shaxsiy imkoniyatlari va xarakteriga muvofiq ekanligi;

- bolalar bilan mulqotga kirisha olishi;

- mutaxassis nuqtai nazaridan ijtimoiy o'z o'rniga ega bo'lishi va hurmatga sazovorlikni his qilishi kabi jihatlarga e'tibor qaratilgan.

Talabalar bergan javoblarda, asosan, "tanlagan kasbim meni qobiliyatimga muvofiq", "tanlagan kasbim mening imkoniyatlarimga to'g'ri keladi", "tarbiyachining jamiyatdagi o'rni muhim", "bolalar psixologiyasi muhim", "MTTda bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'yicha tasavvurga egaman" kabi mazmundagi javoblar kamchilikni tashkil etgan.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishining bakalavriatga qo'yilgan malaka talablarida "Ixtisoslikning aniq kasbiy, ilmiy yo'nalishlari bilan tanishtirish, kasb faoliyati xususiyatlari, faoliyatning ustuvor yo'nalishlari haqidagi bilimlarni berish" belgilab qo'yilgan.<sup>1</sup>

Maktabgacha ta'lim yo'nalishining 2017-2018, 2018-2019 o'quv yillaridagi 1, 2 bosqich o'quv rejalari va fan dasturlari ham o'rganildi. O'quv rejada talabalarni kasbga yo'naltirish yoki motivatsiyani shakllantirish bo'yicha fanlar kiritilmagan. Ixtisoslik fanlari blokida "Maktabgacha ta'limni tashkil etish va rahbarning tashkilotchilik madaniyati" fani 3 bosqichning 2 semestri va 4 bosqichga kiritilgan. Biroq, mazkur fan dasturida maktabgacha ta'limni tashkil etish mazmuni aks ettirilgan. Dastur mazmunida kasbiy motivatsiyani shakllantirish bilan

bog'liq mavzularga o'rin ajratilmagan. Tanlov fanlari blokida "Mutaxassislikka kirish" hamda "Ijodiy faoliyatga o'rgatish" fanlari kiritilgan. "Mutaxassislikka kirish" fanining ishchi dasturida 10 soat ma'ruza va 8 soat amaliy mashg'ulot berilgan, ammo fanining predmeti va vazifalari, tarbiyachilik kasbi, tarbiyachiga qo'yiladigan talablar mavzusiga 2 soat ajratilgan bo'lib, bu yetarli emas degan xulosaga keldik. 8 soat mavzular maktabgacha ta'limni rivojlanish tizimi va turlari, huquqiy, me'yoriy va metodik asoslari, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va ish hujjatlari, maktabgacha ta'lim muassasasini oila, maktab va mahalla bilan hamkorligini ta'minlash masalalariga ajratilgan. Amaliy mashg'ulotda ham aynan shu mavzular berilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori-mudirining kasbiy vazifalari mavzusiga 2 soat ajratilgan. Tahil natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur o'quv modulida talabalarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishga oid mavzular uchun soatlar juda kam ajratilgan.

O'quv amaliyoti davomiyligi 1 va 2 bosqich talabalari uchun bir haftani va jami 36 soatni tashkil qiladi. Bu davrda talabalar maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning rivojlanishi va tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlarni kuzatadilar. "Maktabgacha pedagogika" va "Bolalar fiziologiyasi" fanlaridan olgan nazariy bilimlariga tayangan holda, ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishni o'rganadilar. Bolalarning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beruvchi usullardan foydalangan holda talabalar turli pedagogik jarayonlarni tashkil etish bilan bog'liq malakalarni egallaydilar. Talabalar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi ish faoliyatini kuzata olish, tarbiyachi vazifasida ishlay olish va bolalar jamoasi bilan individual tarzda ta'lim-tarbiya ishlarni olib borishga o'rgatiladi. Pedagog kasbiga bo'lgan qiziqish va muhabbatlari, o'z pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish hamda maxsus va pedagogik fanlarga ishtiyogini oshirish ustida ishlanaadi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning motivatsiyani shakllan-

<sup>1</sup> Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил 25 августдаги 744-сонли буйруғи



tirish va kasbiy faoliyatga tayyor emasliklarini asoslovchi sabablarni keltirgan holda tadqiqot mavzusining dolzarbligini tavsiflaymiz:

- bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ularning individual va psixologik xususiyatlarining inobatga olinmayotganligi;

- bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ma'ruza va amaliy bilimlar uzluksiz va uzviy ravishda berilmayotganligi;

- "BSIFO" modulini o'qitishda professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonida motivatsion muhining yaratilmayotganligi;

- "BSIFO" modulini o'qitish jarayonida bo'lajak tarbiyachipedagoglarda kasbiy motivatsiyani maqsadli shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarining tizimlashtirilmaganligi;

- bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning tashqi motivatsiyani ichki motivatsiyaga aylantirish uchun o'quv jarayonida optimal sharoitlar yuzaga keltirmayotganligi;

- "BSIFO" modulini o'qitish jarayonida bo'lajak tarbiyachipedagoglarning kasbiy motivatsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan samarali metod, shakl hamda vositalar, strategiya va texnologiyalar aniqlanib, amaliyotga joriy etilmaganligi;

- bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish modelining ishlab chiqilmaganligi.

Ushbu sabablarni bartaraf etish dolzarb masala. Chunki bo'lajak tarbiyachilarning:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratishi;

- san'at sohasiga doir qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish; pedagogik jarayonda, faoliyat markazlarida teatrlashtirilgan va boshqa faoliyat turlarining doimiy aloqadorligi uchun sharoit yaratish;

- bolalarni ma'naviy tarbiyalash, atrof-olam bilan tanishtirish, emosional olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish

uyg'otish;

kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish, o'zgalarni tinglay olish va o'zaro fikr-mulohazalarni o'rgangan holda ish-lash malakalarini shakllantirish;

xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida bilim-ga va tasavvurga ega bo'lish, ularni qadrlashga o'rgatish;

bolalarni teatr madaniyatiga oshno qilish kabi ko'nikma, malakalarni amaliyotga joriy etish yo'llarini o'zlashtirishlari ularning o'z kasbida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlari uchun muhim sanaladi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda sahna va sahnalashtirish tushunchalari borasi-da ilmiy-metodik bilimlar berish maqsadga muvofiqdir.

Sh.T.Yusupovning fikricha, "Sahna qat'iy intizom va tar-tibni hurmat qiladi. Shu sababli aynan sahna ijodkorining o'z so'zini aytadigan katta bir muqaddas makonga aйлandi. Sahna ezigulikni targ'ib qilib, bevosita mana shu so'zni aytadigan ijodkorlarning minbariga aйлandi". [123:618-621]

Sahnada gapirayotgan insonning vaziyati qulay va tabiiy bo'lishi lozim, u ikki oyog'da mahkam va qulay tura olishi ke-rak, bu tananing mustahkamligi, tana og'irligini butun mushak va suyaklarga teng taqsimlanishini ta'minlaydi. Boshni egib turish yoki orqaga tashlash mumkin emas, uni erkin ushlab, bo'yinni siqmay turish kerak: bu tomoq va kekirdakning erkinligini, tabiiyligini ta'minlaydi. Sahnadagi boshlovchining yuzi soxtalikdan holi va umumiy vazifa bo'lgan ijod g'oyasiga bo'ysundirilgan bo'lishi zarur. Mashg'ulot jarayonida tabas-sum, o'zi bajarayotgan ishdan xursandchilik, mamnunlik omili ko'rinishi shart. Qo'llar erkin bo'lishi, orqaga yoki ko'krakka bog'lanmagan, yonlarga erkin tushirilgan bo'lishi lozim. [Qa-rang:123:620]

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning keltirilgan sahna mada-niyati bo'yicha talablarni o'zlashtirishlari uchun amaliy mash-g'ulotlarda sahnalashtirish jarayoning tashkil etilishi lozim.



Chunki amalda bajarilgan faoliyat talabalarda ko'nikma, malakalarni mustahkamlanishiga yordam beradi. "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fanining maqsadi talabalarda tarbiyalanuvchilar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim hamda ko'nikmalar shakllantirishdan iborat.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim tizimida professor-o'qituvchilar bo'lg'usi pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish uchun "BSIFO" modulini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llashi, nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning sifat samadorligi quyidagi ta'limiy vaziyatlar yaratish bilan kafolatlanadi:

**birinchidan**, o'quv jarayonining barcha bosqichlarida ketma-ketlik va pedagogik faoliyatni amalga oshirish;

**ikkinchidan**, "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" modulini o'qitishda kerakli vositalardan foydalana olish qobiliyati (qo'g'irchoqlar, personajlar, sahna dekoratsiyalari);

**uchinchidan**, o'quv jarayonida jamoaviy hamkorlik faoliyatidan foydalanish;

**to'rtinchidan**, kasbiy xatti-harakatlarni to'g'ri anglagan holda faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish;

**beshinchidan**, kasbiy o'zini-o'zi taxlil qilish va tarbiyalashga yo'naltirish;

**oltinchidan**, bo'lajak pedagog sifatida kasbiy ko'nikmalarni ijtimoiy tajribaga tayangan holda takomillashtirib borish.

"BSIFO" modulini o'qitish jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy yo'nalganlik, mustaqil fikrlash va pedagogik xatti-harakatlar shakllanadi. Kasbiy motivatsiya kasbga bog'liq barcha majburiyatlarni bajarish va his qilishni ta'minlaydi, kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Kasbiy motivatsiya tashqi omillar va bo'lajak tarbiyachilarni kasbga yo'naltirish ta'sirida

takomillashib boradi. Motivatsiya faoliyat hamda xulq-atvor bilan belgilanadi, kasbiy o'zini-o'zi anglashi, o'z faoliyatidan qoniqish hissini yuzaga keltiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikr-mulohazalar asosida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda metodologik yondashuvlarni amalga tadbiq etish lozim, degan xulosaga keldik. Ya'ni bunda tizimli, faoliyatli va sub'ektiv-jarayonga xos munosabatlar amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvlardan foydalanish tadqiqotni samarali kechishiga asos bo'ladi. Tizimli yondashuv natijasida tadqiqot ishinining mohiyati aniqlanib, uning komponentlari aniqlandi. Faoliyatli yondashuv jarayonida talabalar va o'qituvchilarning o'ziga xos tomonlari, ularni ijodiy o'zaro harakatga undovchi usul, shakl va vositalarni aniqlash ko'zda tutiladi. Sub'ektiv yondashuv kasbiy motivatsiyani shakllantirishda talaba-o'qituvchilarning o'zaro ta'sir ko'rsatish munosabatlarini nazarda tutadi.

Faoliyatli yondashuvda talaba-o'qituvchilarning ijodiy hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Talabalarga motivatsion muhitning ta'siri o'zaro harakatning sub'ekti sanaladi. Talabalarda kasbiy faoliyat motivlari ularda kasbiy qadriyat qay darajada shakllanganligi bilan namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda samara beradigan metodlarni to'g'ri tanlash talab etiladi. Sub'ektiv jarayonga xos munosabatlar maqsadga yo'naltirilgan, uzluksiz va boshqaruvchan xarakterga ega bo'ladi. Motivatsiyani shakllantirish bosqichlari uni rivojlantirish va mustahkamlashda asos hisoblanadi. O'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda ham kasbiy motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy-ma'naviy tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyani shakllantirishda oliy ta'lim tizimida quyidagi talablarni bajarish zarur. Talabalarda nazariy-kognitiv, ya'ni fanlardan o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash; o'quv faoliyatida pedagogik-psixologik bilimlarga tayanib, didaktik jarayonlarni tashkil-



lashtirish ko'nikmasini shakllantirish hamda bolalar tarbiyasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish malakalarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, talabalar maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiyaviy jarayoni amalga oshirishni rejalashtirish hamda tashkil etish kompetensiyasi hamda o'quv materiallarini bolalarga yetkaza olish malakalarini egallashlari zarur. Kasbiy motivatsiya talabalarda gnostik ko'nikmalarni shakllantiradi hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonning borishi va natijalarini tahlil etish ko'nikmasini egallaydilar. Kasbiy motivatsiyaning shakllanishida pedagogik nazariyalar va shaxsiy tajriba muhim o'rin tutadi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar "BSIFO" o'quv modulini o'zlashtirishlari natijasida tashkilotchilik qobiliyati rivojlanadi. Natijada, talabalarda kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi, bolalar va pedagogik jamoa o'rtasida samarali muloqot o'rnatish malakalarini egallaydilar. Bo'lajak tarbiyachilar ta'lim jarayonida bo'lg'usi pedagogik faoliyatga shaxsiy hamda kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'radilar. Bunda ularda o'z o'ziga ta'lim berish, kasbiy o'zini rivojlantirish, takomillashtirish, ijodiy-tadqiqotchilik, ilmiy izlanishlarga intilish xususiyatlari kuzatiladi.

Kuzatishlarimiz bo'lajak tarbiyachilar maktabgacha ta'limda bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish jarayonini tashkil etishda ko'zga tashlanuvchi tashkiliy-pedagogik muammolarga duch kelishlari, yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi yetarli darajada bajarilmayotganligini ko'rsatdi. Aniqlangan muammolar keyingi bosqich tajriba-sinov ishlarining yo'nalishlarini belgilab olish uchun asos sifatida xizmat qildi. Tadqiqot ishining keyingi boblarida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda shakllangan kasbiy motivatsiyani baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish rejalashtirildi. Ya'ni talabalarda kasbiy ehtiyoj, kasbiy faollik, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy ko'nikma, mustaqil fikrlash kabi harakatlar amalga oshirishini nazarda tutadi.

## II BO'LIM.

### BO'LJAK TARBIVACHI-PEDAGOGLAR KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI

#### 2.1-§. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish mazmuni va tuzilmasi

Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil etishda talabalarining shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlariga e'tibor qaratish muhim sanaladi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish orqali pedagogik jarayonga tayyorlash ularda kasbiy kompetensiya, kasbiy ko'nikma, malakalarning oshirilishiga erishiladi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyani shakllantirishda ta'lim jarayonida turli xil o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, talabalarining shaxsiy moyiligi va layoqatini oshirishda professor-o'qituvchilardan pedagogik mahorat va tamoyillarga rioya qilish taqozo etiladi. Tamoyillarning muhim jihatlari talaba shaxsining ichki imkoniyatlarini ko'rsata olish, faolligini namoyon etish, ta'lim jarayonida shaxsiy ijodiy qarashlarini bildirish kabilarida namoyon bo'ladi. Talabalarda mazkur ko'nikmalarning shakllanishi kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, ta'lim muhitiga yangiliklarni tatbiq etish malakalarining egallashlarini kafolatlaydi. Ularda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuv hamda ta'lim tarbiyalanuvchilar bilan samarali muloqotda bo'lish malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Muammo yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida talabalar bilan "BSIFO" o'quv modulini o'qitishda quyidagi tamoyillar asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyat tashkil etildi:

1. **Mustaqillik tamoyili.** Bunda talabalar o'zini-o'zi namoyon etishi hamda o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etishiga sharoit yaratiladi. O'quv faoliyatini mazmunli amalga oshirish



va topshiriqlarni belgilashda talabalarning takliflari, mustaqil fikrlashlari inobatga olinadi. Darsda erishilgan natija va yutuqlar o'qituvchi hamda talabalar bilan hamkorlikda tahlil qilinadi.

**2. Rivojlantiruvchi tamoyil.** Bunda o'quv jarayonini muntazam o'zgartirib turish taqozo etiladi. Mashg'ulotni tashkiliy qismidan boshlab yakunigacha talabalarning xohish istaklari qondiriladi. Talabalar mavzuga oid muammolarni mustaqil ravishda hal etishlari va jarayonga oid munosabatlarini bildirishlari uchun pedagogik sharoit yaratiladi. Tamoyilning mohiyati shundaki, o'quv topshiriqlari qismlarga bo'linib, barchaga taqsimlanadi, hamkorlikdagi faoliyattan, ijtimoiy harakat hamda mustaqil ravishda ichki harakatlarga o'tish amalgashiriladi.

**3. Hamkorlik tamoyili.** Bunda pedagogik jarayonda o'qituvchi va talabalarda tashabbuskorlik, ijodkorlikni namoyon etirish ko'zda tutiladi. Shuningdek, bilim, ko'nikma va malaka, kompetensiyalarni takomillashtirish, o'zaro birgalikdagi ta'limiy harakatlar amalga oshiriladi, hamkorlik strategiyasi takomillashtirib boriladi.

**4. Rol ijro etish tamoyili.** Bunda o'qituvchi va talabalar belgilangan topshiriq, vazifalarni bajaradilar. Topshiriqlar davlat, jamiyat, ta'limni boshqaruvchi tashkilotlarning ijtimoiy talablariga asosan beriladi. O'qituvchi talabalar faoliyatining tashkilotchisi va rahbar rolini ijro etadi. Talabalar, o'z navbatida, o'qituvchi bergan topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajaradilar.

**5. Mas'uliyatni his etish tamoyili.** Bunda barcha talabalar dan o'quv jarayonida nafaqat ularga qo'yilgan majburiyat, balki o'z xatti-harakatlari, faoliyat natijalari, berilgan topshiriqlarning bajarilishi bo'yicha hisobot talab qilinadi. Talabalar kasbiy mas'uliyat hissi hamda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanganligi haqida ma'lumot beradilar.

**6. Jamoaviylik tamoyili.** Bunda o'qituvchi va talabalar

o'zaro birgalikda faoliyat yuritadilar. Barcha ishtirokchilar bir-birlariga yordam ko'rsatadilar, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni birgalashtirib hal qiladilar. Talabalardan o'quv maqsadlarining muvaffaqiyatli kechishida bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, qiziqishlari va intilishlarini namoyon etishda jamoaviy harakat qilishlari talab etiladi.

**7. Psixologik qo'llab-quvvatlash tamoyili.** Bunda dars jarayonida sog'lom ruhiy muhitni yaratish orqali o'quv faoliyatining samarali bo'lishiga erishish nazarda tutiladi. Talabalar faoliyati ruhan qo'llab-quvvatlab turiladi. Past o'zlashtiruvchi talabalar faol talabalar bilan birlashtirilib, ularning faolligini oshirishga e'tibor qaratiladi. Auditoriyada ko'tarinki kayfiyat o'rnatilishi lozim bo'ladi.

Sanab o'tilgan tamoyillar bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mazmuni bir qancha tarkibiy tuzilmadan iborat bo'lib, 2.1-jadvalda ifodalandi.

**2.1-jadval**

**Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mazmuni tarkibiy tuzilmalari**

|                                        |                                                                                                                                                                                                                                 |
|----------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Motivatsion omillar                    | kasbiy ehtiyoj, kasbiy faol bo'lish, pedagogik faoliyatga moslashish; o'zidagi mavjud tajribani bilimlar bilan boyitish; hissiy bargavorlik.                                                                                    |
| Kasbiy yo'nalganlik                    | sabrlilik, mehnat intizomini bilish, shaxsiy namuna, mehnatsevarlik, hamkorlik munosabatini o'rnatish, ota-onalar bilan hamkorlik, kasbiy burchi va majburiyatlari.                                                             |
| Kasbiy faoliyat mazmunidan xabardorlik | Maktabgacha ta'lim sohasiga doir me'yoriy hujjatlar bilan tanishish; o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish; pedagogika va bolalar psixologiyasidagi so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lish; zamonaviy texnologiyalarni o'rganish. |



|                           |                                                                                                                           |
|---------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kashiy qiziqishlar        | bolalarni sevisht, ularni kuchi va imkoniyatiga ishonish; ilg'or ish tajribani o'rganish; o'z yutuqlarini namoyish etish; |
| Ijodiy-refleksiv faoliyat | ijodiy faoliyatni tashkil etish; o'z-o'zini baholash; kreativlik, o'zgalar faoliyatini kuzatish va baholash.              |

Tajriba-sinov davrida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda quyidagi kasbiy elementlarni shakllantirishga e'tibor qaratildi:

- o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishi, ta'limiy jarayonlarni innovatsion shaklda amalga oshirish ko'nikma va malakalarini egallash;
- samarali usul hamda texnologiyalardan o'rindi foydalanish;
- o'quv-metodik faoliyatga samarali amalga oshirish tajribasini o'rganish va boyitish;
- pedagogik va ta'limiy faoliyatni tashkil etish, nazoratga olish malakalarini egallash;
- tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchilar bilan insonparvarlik munosabatini o'rnatish;
- tarbiyalanuvchilarda sahnalashtirish faoliyatiga xos bilimlarni shakllantirish malakasiga ega bo'lish.

Kasbiy tayyorlik bevosita bo'lajak tarbiyachilar faoliyatini tashkil etishning ob'ektiv va sub'ektiv, ijodiy-individual komponentlari bilan tavsiflanadi. Bo'lg'usi tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun oliy ta'lim tizimida ta'limning innovatsion texnologiyalarini tatbiq etishga o'rgatiladi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagog sifatida ular jamiatdagi o'zgarishlarga tez moslasha olish, kutilmagan vaziyatlarga tayyor turish ko'nikmalari shakllantiriladi. Kelajakda kasbdoshlari hamda ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatish qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Talabalarda mazkur ko'nikmalarning shakllanishi kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, ta'lim muhitiga yangiliklarni tatbiq etish malakalarini o'zlashtirishlarini kafolatlaydi. Ularda pedagogik faoliyatga ijodiy yon-

dashuv, insonlar bilan samarali muloqotda bo'lish malakasi, hamda o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Bo'lajak pedagoglar maktabgacha pedagogika, bolalar psixologiyasi va yosh fiziologiyasi hamda bolalar gigienasi fanlarini mukammal o'zlashtirishlari lozim. Chunki maktabgacha ta'limga oid bilimlarni mukammal egallashlari tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi eng asosiy omillardan biridir.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar kasbiy faoliyati bo'yicha jahonda erishilgan eng ilg'or tajribalarni o'zlashtirishlari hamda bilimlarini kengaytirib borishlari zarur. Bo'lg'usi tarbiyachilar ta'lim va tarbiya metodikasini o'zlashtirishi, bolalarning individual xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi hamda ularning ichki dunyosini anglashi, pedagogik mahoratni egallashi bunda mustaqil ta'lim olishga intilishi zarur. Samar o'tilgan talablar motivatsiyaning asosiy belgilaridan biri bo'lgan o'quv faoliyatini qanday tashkil etishga bog'liq. O'quv faoliyatida talabalar o'zini-o'zi tahlil qilishda refleksiv qobiliyatga tayanadilar. Shuningdek, o'quv jarayonida talabalar turli nizoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmasini egallaydi, fikr va qarashlarni bildirish uchun sharoit yaratish talab etiladi.

Talabalarda kasbiy mahoratning shakllanishi ularning shaxsiy sifatleri va faoliyat tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash kasbiy kompetensiya, kasbiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan amalga oshadi. Talabalarining kasbiy kompetentlik tarkibiga kasbiy sifatlar, individual xususiyatlar, kasbiy motivlar, qiziqish va moyillik kiradi. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishi kasbga sodiqlik va kasbiy tayyorgarlikdan boshlanadi. Kasbga bo'lgan sadoqat esa bo'lajak tarbiyachilarning shaxsiy o'ziga xosligi bilan belgilanadi, ya'ni maktabgacha ta'limda faoliyat yuritishga ehtiyoj, kommunikativ kompetentlik, kasbga bo'lgan mehm-muhabbat, hissiy barqarorlik va ijodiy faollik. Kasbiy kompetentlik, bilim, ko'nikma, malaka mehnat faoliyatini to'la-to'kis amalga oshi-



rişda muhim xususiyatlar deyish mumkin. **1-2 bosqich talabalari** bilan tajriba-sinov davrida "BSIFO" o'quv modulining bo'ladagi mavzularini o'zlashtirish natijasida kasbiy motivatsiyani shakllantirish imkoniyatlari aniqlashtirildi

(2.1-rasm).

| No.№ | BSIFO' moduli mavzulari                                                                        | Kasbiy motivatsiyani shakllantirish imkoniyatlari                                                                                                                                                         | Kasbiy motivatsiyaning didaktik imkoniyatlari                                                                                                        |
|------|------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1    | Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahna o'tirish faoliyatini tashkil etish.                      | Bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratishni o'rganadi. Bolani ma'naviy tarbiyalash, emosional olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish uyg'otish malakasini egallaydi.                       | Ta'lim-tarbiya berishning samarali usul va texnologiyalarini bilishga intiladi.                                                                      |
| 12   | Sahna o'tirish faoliyatini jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi | Tarbiyachi ifodali o'qish, so'zlash, aktyorlik va rejissyorlik mahoratidan boxabar bo'lishga harakat qiladi. Bolalarning ijodiy faolligini ota-onalar hamkorligida amalga oshirish lozimligini anglatadi. | Talabalar ta'limiy jarayonlarni kuzatish va taxlil qilishni o'rganadi. Ota-onalar yordamida rivojlantiruvchi muhim bo'yitish malakasiga ega bo'ladi. |
| 13   | Sahna o'tirish faoliyatini jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning metodlari      | Samarali metodlarni tanlashni o'rganadi. Adaptatsion va kommunikativ vazifalarni bajarish ko'nikmasi shakllanadi.                                                                                         | Ta'lim-tarbiya berish hamda psixologik korreksiya usul va vositalarini qo'llashni o'rganadi.                                                         |

| 14 | Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va qo'g'irchoq yasash usullari                         | Teatr tomoshalari jarayonida bolalarning nutqiy, hissiy va jismoniy rivojlanishdagi uzviylikni ta'minlay oladi.                                                          | Eraklarni bolaning yoshiga mos bo'lishini anglatadi. Bolalarga individual, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga ko'ra ta'lim-tarbiya berish lozimligini anglatadi. |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1  | Bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning maqsad va vazifalari. Qo'g'irchoq teatridagi o'yin turlari. Applikasiya va origami usuli. Tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash. | MTTda bolalarni ijodiy faoliyatga tayyorlashga qo'yiladigan talablar haqida bilimga ega bo'ladi. Bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish usullarini bilib oladi. | Bolalarni sensor tarbiyalash, mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma, malakalarni egallaydi.                                           |

**2.1-rasm. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish va didaktik imkoniyatlari ("BSIFO" moduli misolida)**


Motivatsiya talabalarida kasbiy ko'nikma va kompetensiyani shakllanishida asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda shakllangan motivatsiya maktabgacha ta'limning samarali tashkil etilishini kafolatlaydi. Ularda innovatsion faoliyat hamda pedagogik improvizatsiyadan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Keltirilgan tamoyillar o'zaro bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonini tashkil etishda bir-birini to'ldiradi va o'quv faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini muhimligini asoslaydi. Natijada, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda bilimlarni o'zlashtirishga harakat qila-



lish, jamiyat uchun foydali xizmat qilish, o'qish va bilim olish zarurligini tushunish hamda mas'uliyatni his qilish tushunchalari shakllanadi.

"BSIFO" modulini o'qitish jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish mexanizmi rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish hamda motivatsiyaning namoyon bo'lishining internal va eksternal shakllari bilan optimallashtirildi. Mazkur jarayonda kasbiy motivatsiyani shakllantirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tashkil etilgan mexanizmlar talabalarda kasbiy faoliyatga qiziqishni yanada oshiradi va mustahkamlaydi. Bu orqali talabalar motivlar ijtimoiy zarurat ekanligini mas'uliyat bilan anglaydilar, o'z kasbini puxta egallashga harakat qiladilar. Tadqiqotda mazkur mexanizmlarni takomillashtirildi



**2.2-rasm. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mexanizmlari**

Yuqorida keltirilgan mexanizmlar natijasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning shaxsiy tajriba va ehtiyojlari shakllantirildi. Anglangan kasbiy motivatsiyani shakllantirishga yo'naltirish: bunda talabalarda turli faoliyatni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatish, usul, shakl va vositalarning samaralisini tanlash hamda kasbiy tayyorgarlikda o'quv reja, fan dasturi belgilangan standart talabalarini bajarishga e'tibor berildi. Talabalarda tarbiyaviy va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida "Kasbiy faoliyatga kirish", "Zamonaviy tarbiyachiga qo'yiladigan talablar" mavzularida bahs-munozara, debat va sahna ko'rinishlari tashkil etildi. Talabalar o'rtasida "Bo'lajak tarbiyachi-pedagog imidji" mavzusida viktorina va tanlovlar o'tkazildi.

Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga yo'naltirishning eng optimal shakli bu kelgusi faoliyati bashoratlay olish uchun reja tuzish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Tadqiqot davrida talabalarga "Talabaning istiqbol rejasini tuzish topshirig'i berildi va namuna sifatida quyidagi reja taqdim etildi (2.3-rasm).

| № | Amalgaga oshiriladigan faoliyat                                               | Amalgaga oshirish shakli                                                     |
|---|-------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Zamonaviy-raqobatbardosh tarbiyachi imidjini yaratish                         | O'zlashtirilgan bilim malakani amalda qo'llash, qo'shimcha ma'lumotlar olish |
| 2 | Mustabil ta'lim olish                                                         | Ilg'or tajribali ustozlar faoliyatini o'rganish                              |
| 3 | Pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan to'siqlar va ularni xal etish yo'llari | Mahorat darsi, o'quv seminari, treninglarda ishtirok etish                   |
| 4 | Otlalar bilan hamkorlikni takomillashtirish                                   | Maslahat, konsultatsiya uyushtirish                                          |
| 5 | Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda ishlash                      | Ular bilan suhbat va treninglar o'tkazish                                    |
| 6 | "Yosh tarbiyachilar maktabi"ni tashkil etish                                  | Ochiq mashg'ulotlar o'tkazish. Pedagogik ustaxonada ishtirok etish           |
| 7 | Axborot texnologiyalardan samarali foydalanish                                | Multimedia resursi yaratish                                                  |



|    |                                                                           |                                                   |
|----|---------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| 8  | BSFO <sup>+</sup> modulini o'zlashtirishda xorijiy tajribalarni o'rganish | Xalqaro konferensiya va forumlarda ishtirok etish |
| 9  | Ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda ishlash                            | Tadbirlar uyushtirish.                            |
| 10 | Ertaqlar sahnalashtirish uchun ssenariy tayyorlash                        | "Ertaqlar olami" shousini o'tkazish               |

## 2.3-rasm. Talabaniq istiqbol rejasi namunasi

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar yuqorida ko'rsatilgan namunaning pedagogik faoliyatidagi amaliy ahamiyatini to'g'ri anglashlari uchun axborotli ta'lim muhitini yaratish, amaliyot mashg'ulotlarda innovatsion va interfaol usullarni qo'llash, pedagogik amaliyotlarni metodik jihatdan to'liq ta'minlash talab qilinadi.

Bundan tashqari, tajriba sinov davrida talabalarda motivatsiyaning shakllanishi tanlagan kasbiga ijobiy munosabatni yuzaga keltirishi asoslandi. Ularda o'quv faoliyatida mustaqil izlanish va topshiriqlarni ijodiy amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qilindi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy qobiliyatini rivojlantiruvchi shartlardan biri, kelajakda o'zining mehnat faoliyatiga qiziqishi ekanligi ilmiy asoslandi. Kasbiy motivatsiyaga talabalarning axloqiy xususiyatlari sifatida ham qarash mumkin. Shuningdek, talabalarda kasbiy motivatsiya negizida qadriyatlar ham shakllana boshlaydi. Talabalarga o'z kasbidan qoniqmaslik pedagogik faoliyat samaradorligining pasayishi haqida tushunchalar berildi. Tadqiqotimizda talabalar o'zlaridagi shaxsiy motivlarini mustaqil ravishda quyidagi ko'rsatkichlar asosida 10 ballik tizimda baholadilar:

1. Bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik darajasi.
2. Tarbiyachilik kasbi haqida tasavvurga egaligi.
3. Kasbiy mahorat elementlarini shakllanganligi.
4. Shaxsiy kar'eraga egaligi.
5. Ota-onalarning istagini bajarish.

6. Do'stlari va tengdoshlarining uni tanlagan kasbiga munosabati.

7. Ustozlarga taqlid qilish.

8. O'quv faoliyatiga qiziqish, yangiliklarni bilishga istak-xohishning mavjudligi.

9. Talabalik davri kelajak poydevori uchun eng yaxshi davr ekanligini ma'anana his qilish.

10. O'zini-o'zi taxli qilish va baholash.

11. Do'stlari va tanishlari oldida o'zini to'la namoyon etishi.

Talabalarning aksariyatida o'zini-o'zi baholash darajasida yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek o'quv jarayonida qiyinchiliklar yuz berganda talabalar bilan yakka tartibda va guruhlar shaklida maslahatlar tashkil qilindi. Ko'proq muammoni vaziyat yechimini topishda yakka tartibda maslahat uyushtirish samara beradi. Ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi kasbiy faoliyatning asosiy xususiyatlarini umumlashtirish, kasbiga nisbatan qiziqish uyg'otish uchun ijodiy topshiriqlar berish, tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan asosiy talablar bo'yicha ma'lumot berish, bo'lajak tarbiyachilarni kasbga tayyorlash pedagogik jarayonda uchraydigan vaziyatlar yechimini topish bo'yicha tavsiyalar berildi va o'qish jarayonida shaxsiy ma'sulligini oshirish, ma'naviy va ijtimoiy darajasini tizimli rivojlantirish ko'zda tutildi. Talabalarda kasbiy ko'nikma va malakalar kasbiy vazifalar mohiyatidan kelib chiqib shakllantirildi. Nazariy bilimlar "BSFO<sup>+</sup>" o'quv modulini amaliy mashg'ulotlarida mustahkamlandi. Talabalar nafaqat o'qituvchi bergan o'quv topshiriqlarni bajardilar, balki o'zini-o'zi baholash va nazorat qilishni ham amalga oshirdilar. Bunda o'quv-tarbiyaviy faoliyatda talabalarning mustaqil faoliyatiga alohida urg'u berildi va ularning faol ishtirok etishlariga imkoniyat yaratildi. "BSFO<sup>+</sup>" o'quv modulini o'qitish jarayonida interaktiv topshiriqlar va ko'rgazmali vositalardan keng foydalanildi. Amaliy mashg'ulotlarda muvaffaqiyatli vaziyat



yaratishga e'tibor berildi. Muvaqqiyatli vaziyat yaratishda talabalarni qo'llab-quvvatlash, sog'lom o'quv muhiti, ularning fikrlarini e'tiborga olish, erishilgan natijalarni baholash va rag'batlantirishga ustuvorlik berildi. Muvaqqiyatsizlikka uchragan holatda talabalar diqqatini topshiriq elementlarini to'g'ri bajarishga yo'naltirish orqali mazkur holatning sabablari tahlil qilindi. Talabalarda kelajakda muvaqqiyatga erishishlariga ishonch hissi uyg'otildi. Bajarilgan ishlarining natijaviligi oshirish uchun nafaqat mavjud bilim, ko'nikmalar, balki kelgusida muvaffaqiyatga erishish darajasi ham baholandi.

## 2.2-§. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish texnologiyalari

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida yetuk mutaxassislarni tayyorlash muhim masalalardan biridir. Bo'lajak pedagoglar zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv jarayoniga tadbir etish malakalariga ega bo'lishi lozim. Ya'ni ular professional darajadagi mutaxassis bo'lishi, ta'limga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani bajarishda faol ishtirok etishlari zarur. O'quv jarayonida talabalarda kasbiy motivatsiyani yuzaga keltirish kelajakda kasbiy faoliyatni samarali kechishini ta'minlaydi. Shu boisdan talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni tanlagan kasbiga qiziqishlarini oshirish uchun samara beradigan texnologiyalarni aniqlash hamda amaliyotga joriy etish tadqiqotining asosiy konsepsiyasi sifatida belgilab olindi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarga qo'yiladigan talablar ularning shaxsiy va kasbiy sifatlariga bog'liq. Tadqiqot davrida oliy ta'limda talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi aksariyat muammolar o'quv-metodik ta'minot va o'qitish mazmuniga bog'liqligi aniqlandi. Buning uchun bo'lajak

tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiya va qadriyatni shakllantirish muhim. Chunki kasbiy qadriyat talabalarda o'z kasbini sevish va fidoiy bo'lishga undaydi. Bu esa talabalarda motivatsiya va kompetensiyaning qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Oliy ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan sifatli ta'lim bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglarni o'z faoliyatining samarali tashkil etishiga zamin yaratadi.


Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv motivatsiyasi yetakchi omil sanaladi. O'quv faoliyatida talabalarni faollashtiruvchi metod va shakllar ta'lim beruvchi tomonidan tanlanadi. Professor-o'qituvchi maqsad va natijalarga erishishi uchun motivatsiya manbalarini ko'ra olishi kerak. Ma'lumki, motivlarning asosiy omilini qiziqish tashkil qiladi. Qiziqish diqqat, fikr va xayolning yo'nalganligi bilan ifodalanadi. Talabalarda motivni paydo qilib, undan keyin maqsadni to'g'ri qo'ya olishga o'rgatish lozim. Tadqiqotimizning avvalgi paragraflarida keltirilgan olimlarning ilmiy qarash va g'oyalari bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiya bevosita shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari negizida paydo bo'ladi, degan xulosani tasdiqladi.

Talabalarda shaxsiy yutuqni qo'lga kiritish va mas'uliyatni xis qilish ko'nikmasini ham tarbiyalash lozim. Fikrimizcha, kasbga tegishli motivlar sirasiga maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy faoliyatida yutuqlarga erishish yo'llarini chuqur egallash, pedagogik mahorat hamda etkaga ega bo'lish kiradi. Sanab o'tilgan komponentlar kasbiy faoliyat tuzilmasini tashkil etadi. Izlanishlarimiz davomida bo'lg'usi tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish komponentlarini tizimlashtirdik (2.4-rasm).

Motivatsiya komponentlari kasbiy tayyorgarlik jarayoniga internal (ichki) va eksternal (tashqi) motivlar ta'siri hamda talabalarni kasbni puxta egallashlari uchun harakat qilishlari, ijodiy o'zini namoyon etishi bilan xarakterlanadi. Bunda



shaxsiy motivlar alohida ahamiyatga ega.



## 2.4-rasm. Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish komponentlari

Bu esa talabalarda pedagogik faoliyatga qiziqishni uyg'otadi. Talabalar bo'lajak mutaxassis sifatida jamiyatda o'z mavqegini egallashga intiladi. Intellektual rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi, ijodiy faolligi ortadi. Talabalarining shax-

siy motivlari o'quv faoliyatini samarali kechishini ta'minlaydi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarining faolligi motivlar negizida oshadi, talabalar shaxsiy tajribasiga tayangan holda darslarda erak va hikoyalarni sahnalashtiradilar. Bu esa ularda turli pedagogik vaziyatlarni ijobiy xal etishga zamin yaratadi. Yuqorida keltirilgan motivatsiyani shakllantirish komponentlarini bo'lg'usi tarbiyachilar faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan barcha motivlarning jamlanmasi, deb atalishi mumkin. Ularning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, pedagogik faoliyatni yuritishda bo'lajak tarbiyachilarni yuqori natijalarga erishishlarini kafolatlaydi.

Kasbiy kompetensiyani shakllantiruvchi motivlar bo'lg'usi tarbiyachilarda pedagogik faoliyatga qiziqish uyg'otadi. Faoliyatga shaxsiy munosabat maqsadli yo'nalganlik, qiziqish va motivlar ta'sirida paydo bo'ladi. Talabalarining faol bo'lishining asosiy manbalari maqsadli faoliyat, ijodiy o'zini namoyon etish, tarbiyachilik mahoratini har tomonlama egallashga intilishlaridir.

Tadqiqotimiz davomida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiyasi, asosan, o'quv faoliyati jarayonlari hamda pedagogik amaliyot davrida shakllandi va rivojlanirildi. Ya'ni "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" modulini o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar integratsiyasini algoritmik loyihalash va ta'limga differensial yondashuvning individual, frontal va jamoaviy shakllardan foydalanildi. To'garaklar, malakaviy amaliyot ob'ekti uchun tayanch maktabgacha ta'lim tashkiloti qoshida tashkil etilgan laboratoriyada ma'naviy tadbirlar, "Bolajon qo'g'irchoq teatri" hamda "Ertaklar olamiga sayohat" bolalar teatr guruhlari tashkil etildi.

Tajriba-sinov davrida talabalarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish uchun quyidagi **pedagogik sharoitlar** yaratildi:

1. Talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olish.
2. Ta'limning yetakchi va natijaviy maqsadini belgilash.



3. Qulay o'quv va axborot muhitini yaratish.
4. Tarbiyachi kasbiga ijobiy munosabat tuyg'usini shakllantirish.

5. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish.

"Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" modulining o'qitish jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda quyidagi shakllardan foydalanildi:

1. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar ko'rgazmasi va galariya tashkil etildi. Talabalar kichik guruhlariga ajratildi, ularga qo'g'irchoq va sahnalashtirish jarayoni uchun dekoratsiyalar tayyorlash topshirig'i berildi va vaqt belgilanadi. So'ngra ular yasagan qo'g'irchoq va dekoratsiyalar galereyasi tashkil etildi.

2. Ko'ngilochar soatlarda talabalar "Kafiyatni ko'taramiz" mavzusida sahna ko'rinishlari namoyish etdilar.

3. Laboratoriya uchun belgilangan tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida talabalar tomonidan bolalar uchun "Bo'lajon qo'g'irchoq teatri" tashkil etildi.

4. "Ijodkor tarbiyachi" to'garagida talabalar tomonidan tikilgan qo'g'irchoqlar uchun kiyimlar, bayram ertaligi uchun kastyumlar tayyorlandi. Qo'g'irchoq teatrida namoyish etish uchun kerakli jihozlar yaratildi.

5. Viloyat va shahardagi eng ilg'or tajribali tarbiyachi-pedagoglar bazasi yaratildi. Toshkent viloyati ChDPI qoshida "Tarbiyachilar uyushmasi" tuzildi. Uyushmaning eng ilg'or tarbiyachilari bilan uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazildi.

Bundan tashqari, tajriba-sinov davrida bo'lajak tarbiyachilarga pedagogik faoliyat algoritmini tuzish topshirig'i berildi. Pedagogik faoliyat algoritmi kelgusida ish faoliyatini tashkil etish uchun yo'riqnoma sifatida tavsiya etildi. Buning uchun talabalarga quyidagi ko'rsatmalar berildi:

1. Qanday mutaxassis bo'lmog'chi, nimalarga erishmog'chi,

maqsadini qanday yo'l bilan amalga oshirmog'chi.

2. Kasbiy faoliyat va kelajakdagi ish joyi bilan tanishish.

3. Maqsadga erishish yo'lini tanlash.

4. Kasbiy-pedagogik faoliyatida duch kelish mumkin bo'lgan to'siqlar va ularni xal etish.

5. Maqsadga yetishda pedagogik qobiliyat, iroda, sog'liqqa ahamiyat berish.

Yuqorida ko'rsatilgan talablar bo'yicha pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etishlari uchun, axborotli ta'lim muhitini yaratish, amaliy mashg'ulotlarda innovatsion va interfaol usullardan foydalanish, pedagogik amaliyotni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish bo'yicha bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarga ko'rsatmalar berildi.

Talaba shaxsida motivatsiya ikki ko'rinishda: ekstrinsiv, ya'ni tashqi – shart-sharoit, harakatlarga hamda intrinsiv, ya'ni ichki – uning qarashlari, ehtiyoji, qiziqishi, mayl, istaklariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Izlanishlarimiz davomida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar ekstrinsiv motivatsiya shakllanishiga oliy ta'lim tizimida dars mashg'ulotlaridan tashqari "BSIFO" o'quv moduli negizida "Bolajon" qo'g'irchoq teatri va "Ijodkor tarbiyachi" to'garaklari tashkil etildi. Talabalar amaliy mashg'ulotda ijodiy ishlar ko'rgazmasi va galereya metodi orqali kasbiga bo'lgan qiziqishlarini namoyon etdilar. Bundan tashqari, kasbiy motivatsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy tadbir va ilg'or tajribali tarbiyachi-pedagoglar bilan uchrashuv, tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotidagi amaliyot va davra suhbatlari o'tkazildi.

Talabalarda intrinsiv motivatsiyaning paydo bo'lishida, asosan, ularning shaxsiy qarashlari, ehtiyoji va mayl-istaklarini imobatga oluvchi shaxsga yo'naltirilgan va hamkorlik texnologiyalardan foydalanildi. Hamkorlik o'zaro uzviy bog'langan ikki tomonlama ta'sir o'tkazishdir. Hamkorlik muhiti talabalarining nutqiy va xatti-harakatlari (jest-mimika), emosional holati, qadriyatlarini, maqsadlar almashuvini talab etadi, bino-




barin, talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi shaxslararo munosabat ta'lim oluvchining ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Hamkorlik faoliyati anglashilgan o'quv motivlarini tarkib topirish, ta'lim bosqichlarida ularni qayta qurish va takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Tadqiqotimizda talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish masalasini o'quv jarayonini tahlil qilish va natijalarni muhokama qilish yordamida amalga oshirishga e'tibor qaratildi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga ustuvorlik berildi, ya'ni o'quv jarayoni oldindan loyihalashtirilib, ta'limiy vaziyatlarda talabalarda paydo bo'ladigan xohish va istaklariga ko'ra tashkil etildi. Mazkur jarayonlarni tizimlashtirish maqsadida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishning didaktik tizimini takomillashtirdik (2.5-rasm).

O'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda talabalarga o'zini namoyon etishlariga keng imkoniyat yaratildi. Talabalar-ning qiziqishlari inobatga olindi. Professor-o'qituvchilar na-faqat talabalarni faoliyatga yo'naltiradi, balki barcha jarayon ular tomonidan amalga oshiriladi. Pedotsentrik yondashuvning muhim pedagogik jihataridan biri, o'quv faoliyati kelajakda ijtimoiy buyurtma talabadan nima talab qilishiga emas, bal-ki talabaning individual qiziqishlari va savollariga qaratiladi. Izlanishlar davrida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kommu-nikativ kompetensiyani shakllantirishga ham e'tibor qaratildi. Bunda talabalarda bolalar bilan samarali aloqa o'rnatish, suh-batdoshlar orasida yaxshi taassurot qoldirish, o'zining shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lish, o'z so'zi, harakatlarning sabablari va boshqalarning reaksiyalarini tushunish, samarali tinglash va mantiqiy savollar berish, optimal ravishda og'zaki bo'lmagan muloqot usullaridan foydalanish kabilarini egallaydilar. Bunda muloqot mahorati rivojlantiriladi, samarali muloqot o'rnatila-di, erishilgan bilimlar amaliyotga tatbiq etiladi. Aynan o'quv mashg'ulotlarini interfaol usullar asosida tashkil etish tala-balarda o'z faoliyatlaridan qoniqishni hosil qiladi. Talabalar

foydalanilgan usul va shakllar bevosita natija berishiga guvoh bo'ladi.



## 2.5-rasm. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning didaktik tizimi

O'quv jarayonida talabalarda o'z kasbiga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishi, ularni kasbiy yo'nalganligiga bog'liq bo'lib, bevosita kasbiy-pedagogik qarashlari rivojlana-di. Ularda pedagogik faoliyatga doir tushuncha va tasavvurlar boyitiladi. "BSIFO" modulini o'qitishda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda talabalarga turli xil muammoli savollarning yechimini topish ishtirok o'yinlari asosida amalga oshiril-



di. Masalan, "Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati", "Maktabgacha ta'lim tashkiloti turli yosh guruhlari sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari", "Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish" kabi mavzularda ishchanlik o'yinlari o'tkazildi. Bilim olish motivatsiyasi talabalarning harakati bilan asosan hamda ularning istaklari va tabiiy qiziqishlariga bog'liq bo'ladi. Ular turlicha qarashlar asosida yechimlarni qabul qilish, ixtiyoriy va maqsadga yo'nalgan holda harakat qilishlariga erishiladi. O'quv jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning pedagoglarda kutilmagan vaziyatli muammolarni bartaraf etish malakalarini shakllantirish, maqsadga erishishda qat'iylilikni namoyish etish va turli xil pedagogik vazifalarni bajaranda o'zidan qoniqish hosil qilishga yetarli darajada pedagogik sharoit yaratish talab etiladi. Tadqiqot davomida talabalarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda o'quv-tarbiya faoliyatini tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishga e'tibor qaratildi. Motivlar o'quv faoliyatiga undash bilan birga maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari talabalar tomonidan tanlanib, ular talabning maqsadi, qiziqishi, kelajak rejaları bilan bog'liq bo'ladi. Kasbiy pedagogik motivatsiyaning bunday muhim ko'rsatkichlarining paydo bo'lishi bo'lg'usi tarbiyachilarga kasbiy ehtiyoj, kasbiy qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O'quv jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish uchun ularning pedagogik faoliyatga ijodiy yondashishlari, bolalar bilan samarali mulohazada bo'lish hamda o'z ustida ishlashni takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirildi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy motivatsiyani shakllantirishda pedagogik faoliyatga ijodiy munosabat va kasbiy tayyorgarlik maqsadini anglashga o'rgatildi. Bu vazifalarni bajarishning murakkabligi shundaki, bo'lajak tarbiyachi shaxsining shakllanishida kasbiy tayyorgarlikni to'g'ri tashkil etish va ta'limning natijaviy maqsadini aniqlash birin-

chi navbada turadi. Bo'lajak tarbiyachilarni o'qitish jarayonida faqatgina mutaxassis tayyorlash ko'zda tutiladi, ya'ni kasbiga munosabat hissinii tarbiyalashga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda o'z kasbiga yuqori darajadagi kasbiy qadriyat asosida munosabadda bo'lish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bu esa, albatta, pedagogik ijodkorlikni talab qiladi. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda asosan kasbga qiziqish va motivatsiyani oshirish lozim.

Talabalarda kasbiy motivatsiyaning rivojlanishi o'quv faoliyati natijalarini muvaffaqiyatli qilish yordamida amalga oshirildi. Ushbu jarayonda progressiv ta'lim amalga oshirildi. Ya'ni talabalar pedagogik faoliyatni amalga oshiradilar, har bir talabaga ularning qiziqishi, istagi va ehtiyojiga ko'ra alohida e'tibor qaratiladi. Progressiv ta'limda professor-o'qituvchilar talabalarga o'ylash va fikrlashni o'rgatishlari lozim. Talabalar o'quv mazmunini faqat eslab qolishlari emas, balki mantiqiy fikrlashlari talab etiladi. Talabalar amaliy faoliyatga yo'naltiriladi. Ular o'z bilim va malakalarini turli xil tadbir va amaliy mashg'ulotlarda namoyish etdilar. Ta'limiy vaziyatlarni mustaqil bajarib, hamkorlikda sahnalashtirish, qo'g'irchoqteatri namoyishlari tashkil etiladi. Tajriba-sinov davrida talabalar kreativ yondashgan holda o'quv topshiriqlarini bajardilar.

**1, 2-bosqich talabalari** bilan tajriba-sinov davrida psixolog olim Nyutten Jozef tomonidan yaratilgan **Motivation induction metodi** "MIM"dan foydalanildi.

**Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish.**

**Maqsad:** talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish bo'yicha tasavvurlarini shakllantirish va mustahkamlash. Tarbiyachilik kasbiga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish.

**Mashg'ulotning borishi.** Mashg'ulot og'zaki shaklda ikki turkum savollar asosida olib borildi.



| 1-turkum savollari.                                                                                                    |                                                                                      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| “BSIFO” faniga doir ma'lumotlar tugallanmagan gapni davom ettirish asosida o'zlashtiradilar.                           | <b>1-bosqich talabalari</b>                                                          |
|                                                                                                                        | BSIFO o'rgatish fanining asosiy maqsadi...                                           |
|                                                                                                                        | BSIFO faniga doir tanyach iboralar...                                                |
|                                                                                                                        | Sahnalashtirish faoliyati bolalarda quyidagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi... |
|                                                                                                                        | Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi metodlar bular...                   |
| 2-turkum savollari.                                                                                                    |                                                                                      |
| MTTda sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish va kelajakda qanday ishlarni rejalashtirganliklarini so'zlab berdilar. | MTTda sahnalashtirish faoliyati quyidagicha tashkil etiladi...                       |
|                                                                                                                        | MTTda sahnalashtirish faoliyati quyidagicha tashkil etiladi...                       |
|                                                                                                                        | MTTda sahnalashtirish faoliyati quyidagicha tashkil etiladi...                       |
|                                                                                                                        | MTTda sahnalashtirish faoliyati quyidagicha tashkil etiladi...                       |
|                                                                                                                        | MTTda sahnalashtirish faoliyati quyidagicha tashkil etiladi...                       |

| 1-bosqich talabalari                                                                                                   |                                                                                                         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 2-bosqich talabalari                                                                                                   |                                                                                                         |
| MTTda sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish va kelajakda qanday ishlarni rejalashtirganliklarini so'zlab berdilar. | Bolalar bilan "Qo'g'irchoq teatri" tashkil etaman.                                                      |
|                                                                                                                        | Iqtidorli bolalar uchun "Teatr studiyasi" tashkil qilaman.                                              |
|                                                                                                                        | Ertaklarni musiqali badiiy sahnalashtiraman.                                                            |
|                                                                                                                        | "Minni aktyorlar" to'garagi tashkil qilaman.                                                            |
|                                                                                                                        | Ota-onalar bilan hamkorlikda "Ijodkor bolalar" tanlovini o'tkazaman.                                    |
| 2-bosqich talabalari                                                                                                   |                                                                                                         |
| MTTda sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish va kelajakda qanday ishlarni rejalashtirganliklarini so'zlab berdilar. | Tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoq va ko'rgazmalar yasash metodik xizmatini yo'lga qo'yaman. |
|                                                                                                                        | "Xalq an'anali san'at"ga oid mini muzey tashkil qilaman.                                                |
|                                                                                                                        | Ertak va hikoyalarni iprovizatsiya qilaman.                                                             |
|                                                                                                                        | Sahna uchun dizayn va dekoratsiya tayyorlayman.                                                         |
|                                                                                                                        | Ota-onalar bilan hamkorlikda "Qo'g'irchoq teatri" festivali tashkil qilaman.                            |

## 2.6-rasm. Motivatsion induksiya metodida 1 va 2-turkum savollar

**1-bosqich talabalari bilan "Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va qo'g'irchoq yasash usullari" mavzusida mashg'ulot olib borildi.**

**Maqsad:** Talabalarining maktabgacha yoshdagi bolalar-da qo'g'irchoq teatri personajlari yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va qo'g'irchoq yasash usullari haqidagi nazariy bilimlarini kengaytirish. Mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.

**Mashg'ulotning borishi.** Ma'ruza mashg'uloti "G'oyalar matrisasi" metodi asosida o'tkazildi. Metodni qo'llash orqali talabalar 2 bosqichda o'z g'oya va fikrlarini jamladilar.

**1-bosqich.** Quyida keltirilgan savollarga barcha talabalar individual tarzda o'z fikrlarini bayon etdilar.

1. Bo'lajak pedagoglar sifatida bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarini qanday shakllantirasiz?

2. Qo'g'irchoq teatri personajlarini badiiy-ijodiy qobiliyatni shakllantirishda qanday ta'siri bo'lishi mumkin?

3. Kelgusida badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ota-onalar bilan qanday ishlarni amalga oshirasiz?

4. Qo'g'irchoq teatri personajlarini nimlardan yasash mumkin?

5. Qo'g'irchoq yasash jarayonida qanday resurs va vositalardan foydalanish mumkin?

**2-bosqich.** G'oyalarni tanlab olish. Talabalar yozgan g'oyalarni quyida keltirilgan tartibda saralaydilar.

1. G'oyalarni to'ldirish, tartibga solish, murakkablashtirish va yangicha yondashish.

2. Almashtirish, qo'shimchalar qo'shish, moslashtirish va g'oyalarni o'zlashtirish.

3. G'oyalarni optimallashtirish, qayta ishlash va to'g'rilash.

4. Fikr va g'oyalarni kengaytirish. Yuqori va minimal darajada bajarish.



Talabalar barcha g'oyalarni tartibga keltirganlaridan so'ng oldiga qo'ygan maqsadning amalga oshishi samarali kechadi.

**1.2-bosqich talabalari bilan "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining maqsad va vazifalari" mavzusidagi ma'ruza mashg'uloti "Press-konferensiya" shaklida o'tkazildi.**

**1. Tayyorgarlik bosqichi.** Talabalar mustaqil ravishda zarur ma'lumotlarni yig'adilar. Misol va namunalar topadilar. Ma'lumotlarni bayon etish shaklini o'ylaydilar. Talabalar barcha mavzu bo'yicha o'quv ma'lumotlarini bilishlari lozim. Umumlashirish ko'nikmasiga ega bo'lishlari muhim. Talabalar orasidan "Boshlovchi" tanlanadi. muhokama qilinayotgan mavzuni mantiqan va asosli javoblar bilan o'z qarashlari asosida bayon etadi. Har qanday vaziyatda berilayotgan turli savollarga javob topa olishga tayyor bo'lishlari zarur. Press-konferensiya ishtirokchilari tarkibidan "Mutaxassis" roliiga "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchilari va faol talabalar taklif qilinadi. Mavzuni ijodiy va salbiy tomonlari muhokama qilinadi. Muhokama so'ngida yangi takliflar beriladi. Qolgan talabalar turli ko'rsatuv va jurnallardagi jurnalist rolini bajaradilar. Ular qiziqarli va muammoli savollar tayyorlashlari lozim bo'ladi.

**2. Press-konferensiyaning borishi.** Seminar professor-o'qituvchining **kirish so'zi** bilan boshlanadi. U press-konferensiya mavzusi, maqsad va vazifalarini e'lon qiladi. Boshlovchi va "mutaxassislar" bilan tanishtiradi. Asosiy muammoni yoritish bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildiradi. So'ngra jarayonni kuzatib boradi. Boshlovchi muhokama qilinayotgan muammo va reglamentni aniqlashtiradi. "Mutaxassislar" 5-7 daqiqaga ichida mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar. Quyidagi ma'lumotni bayon etadilar: bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining asosiy maqsadi-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

Fanning vazifalari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratish.

2. San'at sohasiga doir qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish.

3. Pedagogik jarayonda, faoliyat markazlarida teatr tashkil etilgan va boshqa faoliyat turlarining doimiy aloqadorligi uchun sharoit yaratish.

4. Bolani ma'naviy tarbiyalash, atrof-olam bilan tanishtirish, emosional olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish uyg'otish.

5. Kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish, o'rtog'larini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalarini shakllantirish.

6. Xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushunchaga ega bo'lish va ularni qadrlashga o'rgatish.

7. Bolalarni teatr madaniyatiga oshno qilish.

Jurnalist-talabalar mutaxassislariga quyidagicha savollarni berdilar:

- MTTda sahnalashtirish faoliyatiga qanday talablar qo'yiladi?

- MTT tarbiyachisi qanday vazifalarni amalga oshiradi?

- Teatr sahnasi uchun iqtidorli bolalar qanday tanlab olinadi?

- Agarda bolalarda rol ijro etayotganda xotirasi pand bersa, qanday yo'l tutiladi?

- Bolalarni sahnalashtirish faoliyatiga jalb etishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

- Ota-onalarni qaysi jarayonda hamkorlikda ishlashga jalb etish lozim?

- MTT musiqqa rahbaridan qanday ko'mak olish mumkin?

- Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda qanday muammoli vaziyatlar yuz berishi mumkin?

Mutaxassis-talabalar o'qituvchi bilan birga savollarga javob beradilar.



Seminar yakunida professor-o'qituvchi umumiy xulosa chiqaradi. Har bir ma'ruzachining chiqishi tahlil qilinadi. Talabalar orasidan jarayonni baholash bo'yicha takliflar so'raladi. Talabalar faoliyatini baholashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi.

1. Muammo yechimini mustaqil ravishda izlash.
2. Mantiqan to'g'ri javob berish.
3. Ma'lumotlarni aniq va batafsil bayon etish.
4. Savollarga mazmunan to'g'ri javob berish.
5. Umumiy xulosa chiqarish ko'nikmasini egallaganligi.
6. Muammo yechimini dolzarbligini asoslash.
7. Nutq madaniyatiga rioya qilish.

Ushbu seminar mashg'uloti talabalarda mustaqillik, maqsadni to'g'ri yo'naltirish va tahliliy tafakkurni rivojlantiradi. Dars yakunida eng faol talabalar rag'batlantiriladi.

Ma'lumki, dunyo miqyosida zamonaviy ta'limda raqamli ko'nikmalar orasida axborot-kommunikatsion texnologiyalar-dan foydalanish kompetensiyasi, media axborot savodxonligi kabilar yetakchilik qilmoqda. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar-da telefon orqali axborot uzatishga qiziqish, raqamli aloqa vositalari, dasturiy ilovalar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Shu bois **1-bosqich talabalari** bilan amaliyotga raqamli yondashuvga asoslangan **"Mobil" texnologiyasi** tatbiq etildi.

**Mavzu. "O'zbek qo'g'irchoq teatrlarining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati".**

**Maqсад:** talabalarining o'zbek qo'g'irchoq teatrlarining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Amaliy ko'nikmalarini shakllantirish. Axborot texnologiyalaridan foydalana olish malakalarini oshirish.

#### **Mashg'ulotning borishi.**

Talabalar orasidan **"MTT direktori"**, **"Uslubchilar"**, **"Tarbiyachilar"** guruh rollari ixtiyoriy ravishda tanlanadi va ular

kichik guruhlariga ajratiladi. O'qituvchi talabalarga ma'ruzada o'zlashtirgan ma'lumotlarga qo'shimchalar topish lozimligini avvaldan topshiriq qilib beradi. O'qituvchi **"Mobil" texnologiya** uchun topshiriqlarni tayyorlab qo'yadi.


1-yo'nalish. Qo'g'irchoq teatri turlari.

2-yo'nalish. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash.

3-yo'nalish. Qo'g'irchoq o'ynatish qoidalarini.

O'qituvchi mashg'ulot boshida maqsadni aniq ko'rsatib beradi. Texnologiyaning borish tartibi haqida ma'lumot beriladi. O'qituvchi "Tasavvur qiling, siz san'at va madaniyatga ixtisoslashgan mobil MTTda ish faoliyatingizni boshladingiz. Siz tumanningizda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish va ularni qo'g'irchoq teatri bilan tanishtirish maqsadida faoliyatingizni namoyish etishingiz lozim. Mobil MTT yo'nalishlari bo'yicha barchangiz berilgan topshiriqni bajarishingiz talab etiladi.

1-yo'nalish. **"Qo'g'irchoq teatrlarining turlari"**. **"MTT direktori"** guruh taqdim qiladi (2.7-rasm).



**2.7-rasm. Qo'g'irchoq teatrlarining turlari**



**2-yo'nalish. "Teatr qo'g'irchoqlarini yasash" haqida "Uslubchi" guruhi so'zlaydi.**

**Konus yoki silindrdan yasalgan o'yinchoqlar.** Sirkul yoki trafaret yordamida turli diametri doiralari qirib olinadi, ular ikkiga buklanadi, buklangan chiziq bo'yab qiriyadi, yarim doiralardan esa yelimlab konus yasaladi, unga ertak qahramonlarining rasmlari yopishtiriladi.

**Magnitli teatr.** Bolalar tomonidan qog'ozli konuslar, silindrlar, porolondan yasalgan o'yinchoqlarini magnitli teatrga ham moslashtirish mumkin. Taglik ostida magnitli harakatlarni uchun yuqqa fanerga mato bo'lagi yopishtiriladi. Taglik yonma-yon qo'yilgan ikkita stolning chetlariga o'rnatiladi.

**Barmog' teatri.** Personajlar barmog'lar uchun tashkilar hosil qilingan qog'oz yoki matodan yasaliib, barmog'lariga kiyiladi. Shaklchalar yoki fagat boshchalar chiziladi, kartonli xalqachalarga yopishtiriladi va barmog'lariga kiyiladi. Marionetka teatri qahramonlari ham turli materiallardan yasaladi. Detailarni yumshoq o'yinchoq tayyorlash qoidasi bo'yicha andozaga qarab tikish mumkin. Bunday qo'g'irchoqlar bir-biriga ko'ndalang qilib chalishtirilgan ikki iplar yordamida harakatga keltiriladi.

**3-yo'nalish. "Qo'g'irchoq o'ynatish qoidalarini". "Tarbiyachilar" guruhi tomonidan tushuntiriladi.**

**Qo'g'irchoq o'ynatish qoidalarini quyidagilardan iborat:**

1. Qo'g'irchoqni shirna (parda)ga nisbatan ma'lum darajada ushlash talab etiladi. Pardaning chetiga qadab qo'yilgan qo'g'irchoq o'z balandligining  $\frac{3}{4}$  qismichalik ko'tarilib turishi lozim.

2. Qo'g'irchoq harakatlarni amalga oshirayotgan paytda uning qo'llari gavdasiga taqalib turishi kerak. Qo'g'irchoqni to'g'ri (tikka) ushlash kerak. Uning egilishi qo'l panjasining egilishi bilan amalga oshiriladi.

3. Qo'g'irchoqni o'tkazish uchun avvalo bilakni bukib qo'g'irchoqni egish kerak, keyin u o'tiradigan joyiga bilakni suyashtir kerak. Qo'llar qo'g'irchoq kiyimi bilan berkitiladi.

4. Qo'g'irchoqlarning harakati va so'zlari ma'lum bir diqqat obekti qaratilgan bo'lishi lozim. Gapirayotgan qo'g'irchoq bosh yoki qo'l harakatlari yordamida, eng muhim so'zlarga o'tirganlarning e'tiborini qaratishi kerak.

5. Bitta qo'g'irchoq gapirayotganda qolganlari gapirmasligi lozim: aks holda so'zlar kimga tegishli ekanini tushunarsiz bo'lib qoladi. Aktyorning bor mahorati qo'g'irchoqqa berilishi kerak.

Mashg'ulot so'ngida har bir yo'nalish ishtirokchilari eshitgan ma'lumotlari bo'yicha savol-javob o'tkazadilar. O'qituvchi javoblarni tinglaydi va umumlashtiradi. Faol talabalar rag'batlantiriladi.

Tajriba-sinov davrida **"Story telling" (storitelling)** texnologiyasidan foydalanildi. **1-bosqich talabalarini** bilan **"Qo'g'irchoq o'ynatishining o'ziga xos tomonlari"** mavzusi **"Story telling" (storitelling)** texnologiyasi asosida o'tkazildi. Ushbu texnologiya talabalarida motivatsiyani rivojlantiradi. O'quv ma'lumotlarini uzatuvchi texnika ham deysht mumkin. U quyidagi vazifalarni bajaradi: murabbiylik, tarbiyaviy, motivatsiya beruvchi, ta'limiy va rivojlantiruvchi. Mashg'ulot jarayonida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq va tavsifalarni bajaradilar. Turli vaziyatlarni modellashadilar va yechimini topadilar. Ushbu texnologiya talabalarga amaliy ko'nikmalarni namoyon etishlariga yordam beradi. Ya'ni mantiq va verbal tarzda ifodalannaydi, balki bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda namoyish etiladi.

**"Raqamli Story telling" (storitelling)** texnologiyasi asosida **2-bosqich talabalariga "Ijodiy faoliyatga o'rgatishning maqsad va vazifalari"** mavzusi tushuntiriladi. Bunda o'quv ma'lumotlari vizual, ya'ni video, skraybing, maynd-mep, infografika tarzida namoyish etiladi.

**Maqsad:** talabalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishga doir ma'lumotlarni vizual shaklda o'zlashtirishlariga yo'naltirish. Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish



ko'nikmalarini mustahkamlash.

**Mashg'ulotning borishi.** O'qituvchi tomonidan avvaldan talabalarga topshiriq beriladi. Talabalar 3 ta kichik guruhga ajratiladi, ular ijodiy faoliyatga doir videotasvirlar, skraybing, maynd-mep, infografika shaklida ma'lumotlarni tayyorlaydilar.

**1-guruh.** Videotasvirda ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining vazifasini namoyish etiladi. Videotasvirda maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni qo'l va badiiy mehnat; ijodiy ko'rgazmalar; o'yinlar uchun atributlar yasash; qog'oz va karton kabi materiallarning xususiyatlari; mehnat qilish madaniyati tasvirlari ko'rsatiladi.

**2-guruh.** Skraybingda ijodiy faoliyat tarmoqlari rasm va belgilar shaklida tasvirlanadi.

**3-guruh.** Infografikada talabalar buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, mahsulotni tejash, buyumlar qoralamasining eskizi va suratini chizish, buyum yasash uchun asboblarni badiiy didlarini shakllantirish, vaqtni tejash kabilar ifodalanadi.

Barcha guruh talabalari tayyorlangan vizual tasvirlarning barchasini namoyish ekanlaridan so'ng tahlil o'tkaziladi. Tomosha qilingan ma'lumotlar haqida o'zaro savol-javob va muhokama qilinadi.

Dars yakunida eng yaxshi ma'lumot tayyorlagan guruhlar rag'batlantiriladi.

"BSIFO" o'quv moduli yakunida 1, 2-bosqich talabalari bilan "**Besh barmog'**" metodi qo'llanildi. "**Besh barmog'**" metodida talabalar o'zlarini baholaydi, tahlil va nazorat qiladi.

**Maqsad:** Talabalarni "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fani yuzasidan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash.

Mazkur metod orqali talabalar o'zini-o'zi nazorat qilish hamda anglashni o'rganadilar. Har bir shaxsda o'z-o'zini anglashning uch yo'li mavjud, ya'ni ular:

1. O'zgalar fikrini baholash.

2. Ijtimoiy solishtirish, o'zini boshqalar bilan taqqoslash.

3. Men hozir qandayman va kelajakda kasbim bo'yicha qanday faoliyat yuritaman?

**Bosh barmog'.** Men bugun tarbiyachilik kasbi bo'yicha nimani o'zlashtirdim? Men uchun muhim yangilik...

**Ko'rsatkich barmog'.** Bugun dars jarayonida kimga qanday yordam ko'rsatdim? Kimni xursand qildim?

**O'rta barmog'.** Bugun darsda mening kayfiyatim.... bo'ldi. Chunki....

**Nomsiz barmog'.** Maqsadga erishish. Bugun nima qildim va nimaga erishdim?

**Jimjalog barmog'.** Bugun qanday yangi bilimlar oldim va tajribaga ega bo'ldim?

Talabalar mashg'ulot yakunida 4 balli mezon asosida o'zlarini baholab boradilar. O'qituvchi talabalarga kundalik daftar yuritib, uni tahlil qilib borishni eslatib turadi.

1 ball. Muvaqqiyatsiz kun.

2 ball. Qoniqarli kun.

3 ball. Muvaqqiyatli kun.

4 ball. Eng muvaqqiyatli kun.

Keltirilgan metodlar talabalarni aniq vaziyatlarni tahlil qilishga jalb etish orqali kasbiy motivatsiyani oshiradi, ta'lim jarayonida norasmiy muhit yaratiladi va tezkor harakatlarni bajarishga o'rgatadi.

Tajriba-sinov davrida "BSIFO" o'quv modulini o'qitishda zamonaviy texnologiya va interfaol metodlardan foydalanildi. Natijada, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda quyidagi kasbiy ko'nikma, malaka va sifatlarni shakllanishiga erishildi:

- kasbiy faoliyat maqsadini anglash;
- ta'limiy vaziyatlardagi muammolarni yechish;
- kasbiy motivatsiya va kompetensiyani egallash;
- o'zini-o'zi baholash hamda o'qishga nisbatan motivatsiyaning o'zgarishi;
- tanqidiy tafakkurning rivojlanishi (refleksiv yondashuv)



- kognitiv, ya'ni bilish faoliyati hamda psixologik sifatlari, qobiliyatining namoyon bo'lishi;
- hissiy o'z-o'zini baholash va kuzatish;
- axloqiy sifatlari, o'z-o'ziga munosabati, o'zini-o'zi nazorat qilishi;
- hurmat va izzatga ega bo'lish.

Talabalar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov asosida quyidagi umumiy xulosalarga keldik: "BSIFO" modulini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiya va interfaol metodlarni qo'llash talabalarining faolligini oshiradi. Kasbiy kompetentlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarini maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'quv jarayoniga tizimli singdirish mashg'ulotlarning qiziqarli va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Mazkur texnologiyalar o'ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi bilan, ulardan foydalanishda ma'lum shartlarga amal qilinish taqozo etiladi. Mazkur shartlarni bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarga o'rgatish maqsadida "BSIFO" modulini o'qitish jarayonida imitatsion mashg'ulotlar tashkil etildi. Ya'ni talabalar o'quv mashg'ulotida tarbiyachi va tarbiyalanuvchiga taqbid qilgan holda rol o'ynab sahnalashtirish jarayonini tashkil etdilar. Talabalardan ixtiyoriy ravishda "Tarbiyachi-pedagog" tanlab olindi, qolgan talabalar "tarbiyalanuvchi" rolini bajardilar. Ushbu mashg'ulotlarda talabalar innovatsion faoliyatni tashkil etishga yo'naltirildi, bu esa kasbiy motivatsiyaning shakllanishiga zamin yaratdi.

### 2.3-§. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish modeli

Oliy ta'lim tizimida bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda o'quv jarayonida mustaqillik, rivojlantiruvchi, hamkorlik, rol ijro etish, jamoaviylik, psixologik qo'llab-quvvatlash tamoyillariga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq. O'quv faoliyatini boshqarish jarayo-

nida talaba o'qituvchining o'zaro hamkorlik munosabatlari o'rnatildi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalariga tayanilgan holda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish modeli amaliyotga joriy etildi. Ushbu modelning tarkibiy komponentlari pedagogika sohasiga taalluqli nazariy ta'limotlar va amaliyotda tarkib topgan ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi mezonlardan tashkil topdi. Tajriba-sinovda ishtirok etgan respondentlarga ushbu modelning mazmuni alohida tushuntirib berildi. Buning uchun seminar-trening va mahorat darsi tashkil etildi. Natijada, modelning samarador natijalarni ko'zlaganligi va ularga erishish imkonini beruvchi jarayon hamda modelda aks etgan vazifalarning hayotiyligi amaliyotchilar tomonidan e'tirof etildi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik modelda muhim yondashuvlarning o'rni alohida aks etgan. Xususan, motivatsiya kategoriyalari va bosqichlari, didaktik tizimi, ularga erishish omillari hamda soha rivojiga hissa qo'shgan olimlarning ta'limotlariga asoslanishning muhimligi inobatga olingan va kasbiy motivatsiyani rivojlantirish asosiy maqsad qilingan.

Modelda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan tanlagan kasbini sevish, mustaqil ishlash, bag'rikenglik, mehribonlik kabi motivatsiya kategoriyalariga o'rin berildi. Shuningdek, faoliyat turlari aniqlandi, maqsadli va ijodiy faoliyat orqali talabalarga pedagogik jarayonda maqsadni to'g'ri belgilash kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

Ijodiy faoliyat orqali pedagogik mahoratning shakllanishiga zamin yaratiladi. "BSIFO" modulini o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlarda talabalarga ijodiy topshiriqlar berish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi.

I-bosqich talabalari bilan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatining



**asosiy vazifalari**” amaliy mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha ijodiy topshiriqlar ishlab chiqildi.

**Maqсад:** Talabalarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, rol ijro etish orqali kasbiy motivatsiyani oshirish.

**Kerakli jihozlari:** Qo‘g‘irchoq teatri tomoshasi uchun shirma, qo‘g‘irchoqlar, ertak qahramonlari niqoblari, musiqa asboblari, rasm chizish uchun plakat, rangli qalam va bo‘yoqlar.

**Amaliy mashg‘ulotning borishi.** Talabalar kichik guruhlar ajratildi. Har bir guruhga ijodiy topshiriq berildi.

**1-guruh topshiriq‘i.** Kichik guruhda (3-4 yosh) sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalarini infografika usulida namoyish etish.

**2-guruh topshiriq‘i.** O‘rta guruhda (4-5 yosh) teatrlashtirilgan o‘yinlar orqali sahnalashtirish faoliyatining vazifalarini ko‘rsatish.

**3-guruh topshiriq‘i.** Katta guruhda (5-6 yosh) syujetli-rolli o‘yinlarni tashkil etish.

**4-guruh topshiriq‘i.** Tayyorlov guruhida (6-7 yosh) musiqa asboblari yordamida sahna ko‘rinishi namoyish etish.

Talabalarga tayyorgarlik uchun 15 daqiqa vaqt berildi.

**1-guruh.** Kichik guruh sahnalashtirish faoliyatining quyidagi vazifalarini **infografika usulida** chizma va tasvirlarda ifodalandi: sahnalashtirilgan o‘yinlarga nisbatan bolalarda kuchli qiziqish uyg‘otish; yaxshiilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni shakllantirish; so‘z boyligini oshirish va ravon nutqda so‘zlasha olishlariga erishish; bolalarda atrof-olam, narsa va hodisa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish; stol teatri, barmog teatri va tosh teatri kabi teatrlarning turli yo‘nalishlari haqida tushunchalarni mustahkamlash; dastlabki aktyorlik mahoratini ko‘rsata olish ko‘nikmalarini tarbiyalash; hayvonlar ovozigina taqlid qilish; ularni so‘zli-didaktik va syujetli o‘yinlarda ijro etish.

**2-guruh.** Talabalar **“G‘ozlar va bo‘ri”** o‘yini tashkil qildilar. O‘yinda ishtirok etish paytida syujet o‘ylab topish,

turli o‘yinchoq va atributlarni qo‘llashda improvizatsiyadan foydalanish imkoniyatlarini namoyish etdilar. Bolalarda rasm chizish, atributlar yasash, she‘r o‘qish, qo‘shiq aytish, raqsga tushish, qo‘g‘irchoqlar bilan improvizatsiyalashgan o‘yinlarda ishtirok etish istaklarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tavsilyalar ishlab chiqdilar.

**3-guruh.** Talabalar **“Maqtonchoq quyon”** etagini sahnalashtirdilar. Quyon obrazini tasvirlab, ijodiy yondashgan holda rol ijro etib berdilar. Monologik va diologik nutq shakllaridan foydalandilar. Qo‘g‘irchoqlar bilan to‘g‘ri manipulyatsiya qilish, ya‘ni to‘g‘ri yo‘naltirish qoidalarini tushuntirib berildi.

**4-guruh.** Talabalar ijodiy kayfiyatni boshqalarga ulashish maqsadida musiqa ohangini turli tana harakatlari orqali ko‘rsatib berdilar. Qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari jarayonida bolalarning yakka va jamoa bilan musiqa asboblari yordamida improvizatsiya qilish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash sahnalashtirish faoliyatining muhim vazifalaridan biri ekanligini izohlab berdilar.

Topshiriqlar namoyishidan so‘ng talabalar natijalarni o‘zaro muhokama qildilar. Guruhlarning yutuq va kamchiliklari bo‘yicha o‘z takliflarini bayon etishdi. Bundan tashqari talabalar rolli o‘yinlar ijro etish orqali hamda o‘quv amaliyotlarida ham amaliy ko‘nikmalarni egalladi. Pedagogik faoliyatda ular bolalar, ota-onalar va kasbdoshlari bilan muloqotda bo‘ladilar, shuningdek ijtimoiy treninglar ham tashkil etildi. Ijtimoiy aloqalar ham bo‘ljak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishida muhim omillardan biridir. Talabalarga kelajakda pedagogik faoliyat jarayonida kasbdoshlari, tarbiyalanuvchilar va ota-onalar bilan to‘laqonli ijtimoiy munosabatlarga kirishishlari bo‘yicha subbatlar ham uyushtirildi.

Tadqiqotimizda talabalar bilan ta‘limiy-tarbiyaviy jaryonlarni tashkil etishda ularning istak-xohish va qiziqishlari



inobatga olindi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulot hamda o'quv amaliyotlarida o'zlarining shaxsiy tashabbuslari bilan tayyorlangan sahnalashtirishga oid ma'lumotlar namoyish etildi. Talabalar tomonidan dars jarayoni videotasvirlarga olindi. Dars yakunida videotahlil o'tkazildi. Ya'ni "Kim qanday rol ijro etdi?", "Berilgan topshiriqlarni qaday amalga oshirdi?", "Improvizatsiya elementlaridan qanday foydalandi?" kabi savollar muhokama qilindi. Natijada, talabalarda pedagogik ijodkorlik mahorati shakllanishiga erishildi.

Tadqiqot davrida bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning to'rtta bosqichi amalga oshirildi. Bular quyidagilardir:

**1-bosqich.** Shaxsiy tajriba va ehtiyojlari shakllantirildi. Bunda talabalarda mavjud tajriba tahlil qilindi va ehtiyojlari aniqlandi. Asosan, talabalarda tarbiyachining shaxsiy sifatari qanday bo'lishi lozimligi xususida ma'lumotlar berildi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagog sifatidagi imidjlari (maktabgacha ta'lim sohasini mukammal bilish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirishi, multimedia vositalaridan foydalana olish v.h.) ishlab chiqildi. Pedagogik faoliyat yuritishga bo'lgan ehtiyojlari aniqlandi va shu bo'yicha tavsiyalar berildi.

**2-bosqich.** O'quv jarayonida talabalarga o'quv ma'lumotlariga mos ravishda usul, shakl va vositalarni tanlash ko'nikmasi shakllantirildi. Bunda pedagogik improvizatsiya imkoniyatlaridan foydalanish, bolalarning yoshiga, individual xususiyatiga xos usul va vositalarni to'g'ri tanlash yuzasidan tavsiyalar berildi.

**3-bosqich.** Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarga maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish va ijodiy faoliyatni tashkil etishlarida tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratish, bolalarni ma'naviy tarbiyalash hamda izlanuvchanlikka o'rnatish kabi vazifalarni bajarishlari muhimligi haqida tushunchalar berildi.

**4-bosqich.** Talabalar bilan "Ijodkor talaba", "Mohir qo'llar", "Pedagogik ustaxona" kabi mavzularda tanlov va master-klass,

bellashuvlar tashkil etildi.

Shuningdek, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda kompetensiyaviy, aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan, tizimlilik, hamkorlik kabi tamoyillarga tayanildi.

Kompetensiyaviy tamoyilga ko'ra talabalar soha bo'yicha olgan bilim, ko'nikma, malakalarini amaliyotda qo'llashda o'z tajribalarini namoyish etdilar. Ya'ni "BSIFO" o'quv modulini o'qitish jarayonida talabalar amaliy harakatni bajarish, ijodiy yondashishga yo'naltirildi.

Aksiologik tamoyilga ko'ra talabalarda insoniy qadriyatlar o'z-o'zini va o'zgalarni, tarbiyalanuvchilar, kasbdoshlarini hurmat qilish, kasbni e'zozlash va qadrlash, tarbiyachi-pedagog imidjini saqlash kabi fazilatlar shakllantirishiga e'tibor qaratildi.

Shaxsga yo'naltirilgan tamoyilga ko'ra talaba shaxsiga hurmat bilan munosabada bo'lish, uning qiziqishi va intilishini inobatga olish, mashg'ulotlarni tashkil etishda ehtiyojlariga ko'ra ta'limiy vaziyatlar yaratish ko'zda tutildi. O'quv mashg'ulotlarida pedotsentrizm yondashuviga ustuvorlik berildi. O'quv jarayoni maydonida talaba shaxsi faoliyat yuritishiga imkoniyat berildi.

Tizimlilik tamoyiliga ko'ra talabalar tomonidan "BSIFO" o'quv moduli bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar tizimli va uzviy ravishda mustahkamlandi. Bunda o'quv mashg'ulotining har bir bosqichi muayyan vazifani to'liq ado etishi uchun aniq ketma-ketlikda, belgilangan vaqt oralig'ida, oldindan tayyorlangan vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan tanlangan usullarni qo'llash orqali talabalarining faoliyatlarini samarali tashkil etishdir. Mashg'ulotning har bir bosqichi keyingi bosqichning ilk qadami hisoblanadi. Ular bir-birlarini xuddi soat mexanizmi kabi yetaklaydi. Ya'ni barcha mavzular o'zaro uyg'unlashgan holda o'qituvchilar tomonidan takdim etiladi. Ushbu jarayonda talabalarni o'zlashtirmaslik sabablari ham e'tiborga olindi, ular



uchun darsdan tashqari vaqtda individual shaklda ma'lumotlar berildi.

Hamkorlik tamoyiliga ko'ra talabalarning muammoni xal etishda o'zaro birgalikda harakat qilishlari, talaba-talaba, talaba-o'qituvchi munosabati ta'limiy jarayon markazida bo'lishiga rioya qilindi. Talabalar berilgan o'quv topshiriqlarini o'zaro hamkorlikda amalga oshirdilar, bu esa ular o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga imkon yaratdi. Ular bir-birlarini ruhan anglagan holda mashg'ulot jarayonida birgalikda ishladilar.

Tadqiqotda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiya quyidagi omillar ta'sirida shakllanishi kuzatildi va asoslandi. Bular quyidagilar:

- pedagogika oliy ta'limda yaratilgan innovatsion axborot muhiti (talabalarlarning axborot olish va uzatish imkoniyatlari, yangilikka chorlovchi o'quv seminari, vebinar, tadbirlar, ochiq darslar) yaratilganligi;

- o'quv faoliyati (talabalarlarning erkinligi, mustaqillik, hamkorlik va shaxsiy ehtiyojlarini e'tiborga olish)ni samarali tashkil etish;

- talabaning individual va shaxsiy sifatlari (qiziqishi, iqtidori, xohish-istaklari)ni inobatga olish;


- professor-o'qituvchilar, kursdoshlar, ota-onalar, tayanch maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ta'siri (talabalar bilan kasbiy faoliyat bo'yicha o'zaro munozara va kelajak rejalari haqida subbatlar tashkil etish);

- OTMning moddiy texnik bazasi, "BSIFO" faniga oid o'quv qo'llanmalarining (sahnalashtirish faoliyatiga oid fanlarni o'qitishda o'zaro uzviy bir-birini to'ldiruvchi munosabatlardagi fan dasturi, darslik, qo'llanma, ishchi o'quv rejalarning mavjudligi hamda ularning ishlash metodikasiga rioya qilinishi) mavjudligi;

- Uchrashuv, davra suhbat (hududdagi MTTlarning ilg'or tajribali tarbiyachilar bilan hamkorlikda amalga oshirish).

Sanab o'tilgan omillar bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda

yaqin va uzoq muddatga mo'ljallangan pedagogik faoliyat maqsadini belgilash, kasbiy qadriyatlarini aniqlash, pedagogik vaziyatni tushunish va baholash, pedagog imidjiga ega bo'lish, axborot vositalari yordamida ishlash, tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish va pedagogik jamoa a'zolari bilan munosabatlarda faol bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishda ham bevosita ta'sir imkoniyatlariga ega.



**2.8-rasm. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyasini shakllantirish modeli**



Mazkur model jarayoni doirasida ta'lim olgan bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar o'zaro muloqotda faollik va mustaqillikni namoyon qildilar, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashish, o'z-o'zini nazorat qilish va rivojlantirish ko'nikmasiga ega bo'ldilar, tajriba-sinov davrida kasbiy motivatsiyaning kuchayishi kuzatildi.

Kasbiy motivatsiya talabalarining kasbga tayyorlashda muhim omil bo'lib, kelajakda pedagogik faoliyat yuritishi qilishi bilan tavsiflanadi va talabaning to'laqonli shaxs sifatida ta'lim berish jarayoni hisoblanadi. Kasbiy motivatsiya tushunchasi nafaqat shaxsiy sifatar, balki talaba shaxsi rivojlanishining kompleks jarayoni bo'lib, uning tarkibini o'qitish, tarbiyalash, kasbiy yo'naltirish, kasbiy maqsad, pedagogik g'oyalar, kasbiy moyillik va qiziqishlar tashkil qiladi.

Talabalarda kasbiy motivatsiyani shakllanganligini baholashda natijaviy mezonlar, kasbiy faoliyat motivatsiyasini baholashda protsessual (rasmiy) faoliyat e'tiborga olindi.

Natijaviylik mezonida talabalarda kasbiy motivatsiyaning shakllanganligi, ijtimoiy, intellektual va psixologik rivojlanganlik darajasi inobatga olingan holda baholandi. Bunda boshlang'ich pog'onada talaba tanlagan kasbini to'g'ri anglagan holda tushunishi, kasbini his qilishi, mehnat qilish ko'nikmalari paydo bo'ladi, lekin mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyon qilmaydi.

Ikkinchi pog'onada talabalar kasbiga qat'iy qiziqqa boshlaydi, ushbu kasbiy faoliyatga moyilligi ortadi, biroq ularni o'quv jarayonining amaliy tomonlari qiziqitiradi.

Uchinchi pog'onada talabalar kasbni puxta egallashga intiladi, qat'iy kirishadi, amaliy tajribalarni egallashni istaydi, ma'ruza va amaliy darslarga mukammal ravishda qiziqadi.

To'rtinchi pog'onada tanlagan kasbiga juda katta xohish bildiradi. Inson va talaba sifatida uyg'unlashib ketadi, kasbiy motivatsiya rivojlanadi, kasbiy qobiliyat namoyon bo'la boshlaydi, o'zining mehnat faoliyatini ijtimoiy ahamiyatini anglaydi

va ishonadi.

Uchinchi va to'rtinchi pog'onalarda talabalarda kasbiy motivatsiyaning shakllanganligi hamda kelajakda kasbiy faoliyatining rivojlanishiga yetarli darajada e'tibor qaratiladi. Talabalarda kasbiy kompetensiyaning shakllanishini tahlil qilish ishchanlik qobiliyatini namoyon bo'lishi kasbga tayyorgarlik darajasi bilan izohlanadi. Kasbiy qobiliyat, qiziqishlar, moyillik kasbiy motivatsiyaning rivojlanishiga asos bo'ladi.



### III BO'LIM.

## BO'LAJAK TARBIVYACHI-PEDAGOGlarda KASBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI

### 3.1-§. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlarining mazmuni

Muammoga doir ilmiy va metodik adabiyotlar tahlili natijalari hamda tadqiqotning bosh g'oyasi bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlar integratsiyasini loyihalash, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga ustuvorlik berishdan iborat bo'lishi lozimligini ko'rsadi. Bo'lajak tarbiyachilar kelgusida pedagogik faoliyatni mazmuni tashkil etishlari uchun ularda pedagogik mahorat hamda kasbiy kompetensiya shakllanganligi muhim. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy motivatsiyaga ega bo'lish darajasi ularning kelajakda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni sifati tashkil eta olishiga to'g'ri proporsionaldir. "BSIFO" moduli o'qitish jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbga qiziquvchanlikni oshirish va uning natijalarini tajriba-sinov davrida amalga oshirish tadqiqotining asosiy qismi hisoblanadi.

Pedagogik-tajriba sinovning bosh maqsadi bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishda progressiv ta'lim hamda pedotsentrik yondashuvni amaliyotga tatbiq etish asosida pedagogik-psixologik tomonlarini o'rganish hamda amalda sinovdan o'tkazishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida tajriba-sinov ishlari maqbul metodika asosida amalga oshirildi. Ushbu metodika quyidagi pedagogik jihatlari bilan ahamiyatga ega:

- tadqiqot mavzusiga doir me'yoriy-huquqiy, ilmiy-

pedagogik, metodologik va metodik manbalarni tahlil etish;

- "BSIFO" o'quv modulini o'qitishda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning amaliyotdagi holatini aniqlash, tahlil etish;

- bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish omillari, tamoyillari, shakl, metod, vosita hamda texnologiyalarini aniqlash;

- tadqiqot ishini loyihalash;

- tajriba-sinov ishlarining natijalarini tahlil etish;

- bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyasini yangi texnologiyalarga ko'ra shakllantirishga doir izlanishlarning natijasini umumlashtirish, matematik-statistik tahlil etish;

- tadqiqot ishini dissertatsiya tarzida shakllantirish.

Tajriba-sinov davrida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiya quyidagi omillar ta'sirida shakllanishi kuzatildi va asoslandi:

- talabalarda tanlagan sohasiga nisbatan qiziqish va ehtiyojning mavjudligi;

- talabaning individual (temperament, xarakter, qobiliyat va iqtidor) va psixik xususiyatlari (diqqatning barqarorligi, mantiqiy tafakkurning rivojlanganligi, hayol va tasavvurning kengligi);

- oliy ta'lim tizimida o'quv va tarbiyaviy ishlarning mazmuni tashkil etilishi professor-o'qituvchilarning kompetentligiga bog'liq ekanligi;

- OTM va hududdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik;

- OTMda mutaxassislik fanlarni o'zaro uzviy, maktabgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan munosabatlardagi fan dasturi, darsliklar bilan ishlash metodikasiga rioya qilinishi, ya'ni yaxlit didaktik tizimning hamda fanlararo integratsiyaning amalga oshirilishi.

Sanab o'tilgan omillarning barchasi bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda nafaqat kasbiy motivatsiyani, balki pedagogik



jarayon bilan bog'liq ko'nikma, malakalar: o'zini namoyon etish va rivojlantirish, nazorat qilish, kelajakdagi rejalarining algoritmini belgilash, kasbiy qadriyatlarini aniqlash, pedagogik vaziyat yaratish, zamonaviy tarbiyachi imidjiga ega bo'lish, axborot muhiti yaratish va vositalarini qo'llash, ota-onalar bilan ishlash, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish kabilarni shakllantirishda kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ahamiyatga egadir.

Tajriba-sinov uchun tayyorlangan dastur quyidagilardan iborat: ob'ekt sifatida tanlangan Andijon davlat universiteti, Jizzax, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabarlari uchun anketa so'rovnomasi, "BSIFO" modulini o'qitish jarayonida vujudga kelgan to'siqlarni aniqlash, bartaraf etishga qaratilgan suhbatlar. Tajriba-sinovga 475 nafar respondent jalb qilingan bo'lib, shundan 472 nafari talaba, 3 nafari tajriba olib boruvchi o'qituvchilardir. Ularning taqsimoti qo'yidagicha: Andijon davlat universitetidan 201 nafar respondentdan 1-bosqich 100 nafar, 2-bosqich 101 nafar talaba, 1 nafari professor-o'qituvchi; Jizzax davlat pedagogika institutidan 155 nafar respondentdan 1-bosqich 77 nafar, 2-bosqich 78 nafar talaba, 1 nafar professor-o'qituvchi; Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutidan 117 respondentdan 1-bosqich 41 nafar, 2-bosqich 76 nafar talaba, 1 nafar o'qituvchi qatnashdi.

Tajriba-sinov ishlari 2017-2020 o'quv yillarida uch bosqichda olib borildi:

**1. Ta'kidlovchi tajriba bosqichi (2017-2018 yy.).** Mazkur bosqichda maktabgacha ta'lim yo'nalishida "BSIFO" o'quv modulini o'qitishda talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish mazmunini yangi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishga doir me'yoriy-huquqiy, ilmiy ma'lumotlar to'plandi va o'rganib chiqildi. Talabalarining tarbiyachilik kasbiga qiziqishi, moyilligi, shaxsiy sifatlari (mustaqil fikrlashi, kreativligi, shaxsiy pozitsiyaga egaligi, bag'rikengligi) va im-

koniyati o'rganildi. Talabalar va "BSIFO" o'quv modulidan mashg'ulot olib boradigan professor-o'qituvchi tomonidan respondentlarga anketa so'rovnomalari berildi, suhbat hamda kuzatuv ishlari olib borildi.

**2. Shakllantiruvchi tajriba bosqichi (2018-2019 yy.).** Mazkur bosqichda kasbiy motivatsiyani shakllantirishga doir xorijiy ilg'or tajribalar o'rganildi, didaktik tizim takomillashtirildi, shakl, usul hamda texnologiyalar mazmuni aniqlandi. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish modeli va komponentlari, o'quv mahsuloti tayyorlandi. Talabalarining "BSIFO" o'quv modulini o'zlashtirishi hamda amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlari, egallagan ko'nikma, malakalarini amalda qo'llay olish, sathlashtirish faoliyatiga oid o'quv topshiriqlarini ijodiy yondashgan holda bajarish, o'z fikrini erkin ifodalash, pedagogik jarayonda zarur bo'lgan xatti-harakatlarni bajarish (maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarga do'stona munosabada bo'lish, muammoli vaziyatlar yechimini topish, sog'lom ruxiy muhit yaratish), pedagogik texnikaga (nutqi, ovoz toni, mimika va jest, pauza, diksiya) egallashi, pedagogik improvizatsiyani namoyon eta olish imkoniyatlari o'rganildi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan "BSIFO" nomdagi o'quv qo'llanma va metodik ishlanmalar tajriba-sinovdan o'tkazildi.

**3. Yakunlovchi tajriba bosqichi (2019-2020 yy.).** Bu bosqichda natijalar umumlashtirildi va "Fisher", "Pirson" kriteriyalari ko'ra statistik tahlil etildi.

Yakuniy natijalariga ko'ra tavsifiya etilayotgan zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning muntazam ravishda tarbiyachilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishining o'rishi, o'quv-tarbiyaviy jarayonga kreativ munosabat va faolliklarining namoyon bo'lishi aniqlandi. Yakunlovchi natijalarga ko'ra ilmiy xulosalarga kelindi hamda amaliy tavsiyalar majmui yaratildi.

Tajriba-sinov jarayonlarida bir qator vazifalar bajarildi. Ular



quyidagilardan iborat:

Belgilangan oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirildi, "BSIFO" fanining yetakchi mutaxassislaridan mas'ullar belgilandi va ularga zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratildi. Tajriba-sinov ishlari yuzasidan olingan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etilganligi haqidagi tasdiqlangan dalolatnomalar tayyorlandi.

2. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllanganlik darajasi hamda samaradorligini oshirish yo'llari aniqlandi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy faoliyati, sahnalashtirish va ijodiy faoliyatni tashkil etish borasida talabalarining ko'nikma, malaka va tajribalarini zamon talabi darajasida shakllantirish bo'yicha samarali shakl, usul va texnologiyalar tanlandi, mazkur mavzu bo'yicha ilmiy-nazariy, tahiliy materiallar to'plamini jamlandi.

3. Tajriba-sinov ishlarining dastlabki ta'kidlovchi bosqichida tadqiqotning ilmiy-metodologik asosi hisoblangan o'quv-tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish, raqobatbardosh va yuqori kompetensiyaga ega bo'lajak tarbiyachilar tayyorlashning huquqiy-me'yoriy asoslari (O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi Qonun hujjatlari, Prezidentning Farmon va Qarorlari, Oliy ta'lim va Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda tarbiyachi maqomi borasidagi xalqaro tashkilotlarning huquqiy-me'yoriy hujjatlari); oliy ta'lim jarayonida talabalarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish va kompetent tarbiyachilar tayyorlash borasidagi xalqaro ilmiy g'oya va ilg'or tajribalar, pedagogik-psixologik, metodik manbalar o'rganildi, tahlil qilindi.

4. Anketa so'rovnomalari, suhbat hamda pedagogik kuza-tish metodlari yordamida tadqiqot mavzusi doirasida o'quv qo'llanma tayyorlandi. Mazkur bosqichda olingan dastlabki natijalar umumlashtirildi, tahlil qilindi, navbatdagi tajriba-sinov jarayonlari uchun ilmiy-metodik materiallar tayyorlandi.

Ishtab chiqilgan "BSIFO" o'quv qo'llanmasi o'quv-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etildi, kasbiy motivatsiyani shakllantirish mexanizmlari, mustaqil ta'lim uchun mavzular, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllanganlik darajalari aniqlandi. Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish komponentlari va mexanizmlari tizimlashtirildi, kasbiy tayyorlik darajalarini baholovchi indikatorlar, didaktik tizim va boshqalar yaratildi.

Ta'kidlovchi tajriba bosqichida pedagogik jarayonni amalga oshirish ko'nikma, malakalari, bolalar bilan samarali mulqot o'rnatish, sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga doir bilim va amaliy ko'nikmalarni aniqlash maqsadida anketa-so'rovnomma o'tkazildi (3.1.1-jadval).

**3.1.1-jadval.**  
**Tajriba-sinovning anketa-so'rovnomasida ishtirok etgan respondentlar soni**

| Tajriba-sinov maydonchalari                            | Respondent talabalar soni | 1-bosqich | 2-bosqich |
|--------------------------------------------------------|---------------------------|-----------|-----------|
| Andijon davlat universiteti                            | 201                       | 100       | 101       |
| Jizzax davlat pedagogika instituti                     | 155                       | 77        | 78        |
| Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti | 117                       | 41        | 76        |
| Jami                                                   | 473                       | 218       | 254       |

Dastlabki tajriba-sinov ishlarida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning "BSIFO" moduli bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlashga yo'naltirilgan variativ 20 ta test topshiriqlarining har bir to'g'ri javobi 1 ball dan baholandi. Natijalar quyidagi darajalar asosida baholandi (3.1.2-jadval).



### 3.1.2-jadval Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning "BSIFO" moduli bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlash bo'yicha testlarni baholash mezonlari

| Baholash mezonlari | Test va savollarning bajarilish soni |
|--------------------|--------------------------------------|
| Yuqori             | 15-20 ta bajaran                     |
| O'rta              | 14-10 ta bajaran                     |
| Quyi               | 10 tadan kam bajaran                 |

1 va 2-bosqich talabalariga amaliy topshiriqlar 5 ta yo'nalishda berildi.

1. Tanlagan kasbi haqida esse yozish.
2. Qog'ozdan o'yinchiq va buyumlar yasash.
3. Loy va plastilindan o'yinchiq yasash.
4. Bayram va ertaklarni sahnalashtirish uchun ssenariy tayyorlash.

5. Mato va ikkilamchi materiallardan qo'g'irchoqlar yasash.  
Tajriba-sinov davrida yuqorida keltirilgan ta'lim muassasalaridagi respondent-talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, ushbu muassasalaridagi ishtiroki quyidagi jadvalda keltirildi.

#### 3.1.3-jadval. Tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalar soni

| Tajriba-sinov maydonchalari                            | Jami talabalar | Tajriba guruhi | Nazorat guruhi |
|--------------------------------------------------------|----------------|----------------|----------------|
| Andijon davlat universiteti                            | 201            | 101            | 100            |
| Jizzax davlat pedagogika instituti                     | 155            | 78             | 77             |
| Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti | 117            | 58             | 59             |
| Jami                                                   | 473            | 237            | 236            |

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyaning shakllanganligi bo'yicha olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan.

#### 3.1.4-jadval. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyaning shakllanganligi bo'yicha olingan natijalar

| №                                                                         | Nazorat turlari    | Tajriba guruhi (237 nafar) |              |             | Nazorat guruhi (236 nafar) |              |             |
|---------------------------------------------------------------------------|--------------------|----------------------------|--------------|-------------|----------------------------|--------------|-------------|
|                                                                           |                    | Yuqori daraja              | O'rta daraja | Quyi daraja | Yuqori daraja              | O'rta daraja | Quyi daraja |
| Andijon davlat universiteti (201 nafar talaba)                            |                    |                            |              |             |                            |              |             |
| 1                                                                         | Anketa-so'rovnomma | 21                         | 37           | 43          | 24                         | 37           | 39          |
| 2                                                                         | Test               | 19                         | 35           | 47          | 34                         | 28           | 38          |
| 3                                                                         | Amaliy topshiriq   | 24                         | 33           | 44          | 31                         | 36           | 34          |
| Jizzax davlat pedagogika instituti (155 nafar talaba)                     |                    |                            |              |             |                            |              |             |
| 1                                                                         | Anketa-so'rovnomma | 23                         | 27           | 28          | 24                         | 26           | 27          |
| 2                                                                         | Test               | 18                         | 25           | 35          | 22                         | 27           | 28          |
| 3                                                                         | Amaliy topshiriq   | 17                         | 23           | 38          | 23                         | 29           | 25          |
| Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti (117 nafar talaba) |                    |                            |              |             |                            |              |             |
| 1                                                                         | Anketa-so'rovnomma | 21                         | 14           | 23          | 18                         | 20           | 21          |
| 2                                                                         | Test               | 16                         | 18           | 24          | 17                         | 22           | 20          |
| 3                                                                         | Amaliy topshiriq   | 18                         | 21           | 19          | 19                         | 17           | 23          |

Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy motivatsiyasini shakllanganligining mavjud holatini o'rganish muammoning dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Anketa-so'rovnomma, amaliy topshiriq, test savollari tahlili bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiya va ko'rsatmalarining yetarli emasligini ko'rsatdi.

Tadqiqot ishlarning ushbu bosqichida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "BSIFO" o'quv qo'llanmasi hamda zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishga yo'naltirilgan



metodika sinovdan o'tkazildi.

Motivatsion induksiya metodi qo'llanilganda, quyidagilar aniqlandi:

- o'quv modulini o'zlashtirish talabalarning individual xususiyatiga bog'liq ekanligi;
- turli yosh davrida farqli jihatlar mavjudligi (1-bosqich va 2-bosqich talabalari o'rtasida farqlar uchradi: ikkinchi bosqich talabalarida ijtimoiy ko'nikmalar me'yorda shakllana boshlagan);

- o'qish faoliyatida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berishi;
- pedotsentrik yondashuv talabalarning xohish-istaklari asosida mashg'ulotni tashkil etishni ta'minlashi;

- motivatsion induksiya metodi yordamida talaba shaxsining ehtiyoji va motivatsiyasi o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'lganligi aniqlandi. Tajriba-sinov davrida mashg'ulot va auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyat uchun zamonaviy texnologiyalar, interfaol metod, o'yin, mashq va shakllar tanlab olindi.

Tadqiqot natijalari samaradorligiga qaratilgan tamoyillar aniqlandi ya'ni:

- tajriba-sinov natijalarini prognozlash;
- tadqiqotning uzluksizligi va tizimlilik;
- manbalarning ilmiyligi;
- aniqlangan shakl, metod va texnologiyalarning ta'lim maqsadiga mosligi;

- insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning ustuvorligi;
- materiallarning soddaligi, ixchamligi va haqqoniyligi;
- shaftoflik va adolatlilikning ta'minlanganligi;
- to'plangan materiallarning talabalarning yosh xususiyatlariga mosligi;

- talabalarning iqtidori, aqliy salohiyati va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;

- o'quv jarayonining hayot va amaliyot bilan bog'liqligi;
- xalqaro ilg'or tajribaning ustuvorligi;
- o'quv faoliyatining mustaqil fikrlash va mulohaza qilishga

yo'naltirilganligi;

kasbiy motivatsiyaning ustuvorligi va boshqalardan iborat.

Tadqiqotda biz tomonimizdan tavsiya etilgan metodikalar asosida talabalarda bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy tayyorlik darajalarini baholovchi indikatorlar, ya'ni pedagogik mahorat, pedagogik improvizatsiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik faoliyatni analiz va sintez qila olish, refleksiv faoliyat, muammoli topshiriqlarni bajara olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish kabilarining shakllanganligini o'rganish va tahlil qildik. Metodik ishlarni olib borishda quyidagi ta'lim tamoyillariga tayanildi: izchillik, uzluksizlik, uzviylik, tizimlilik, hamkorlik.

Tadqiqotda olib borilgan tajriba-sinov ishlarining dastlabki aniqlovchi hamda yakunlovchi bosqichlarida o'tkazilgan nazorat so'rovnomalarining qiyosiy tahlillari biz olib borgan tajriba ishlarining natijaviyligi hamda samaradorligini isbotladi. Buni bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyaning shakllanganligini baholovchi indikatorlarning sifat va son jihatidan dinamik o'rganishida ko'ramiz.

Tadqiqot ob'ektlarida tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda geografik sharoit va o'quv jarayonini o'ziga xos jihatlarni e'tiborga olish, parallel guruhlarda kuzatish olib borish imkonini bo'lmaganligi sababli, aniqlovchi va ta'kidlovchi bosqichdagi holat nazorat guruhi, ishlab chiqilgan tavsiyalar asosidagi amaliy-metodik faoliyat davri esa tajriba guruhi sifatida o'rganildi.

Biz olib borgan tadqiqot ishida ilgari surilgan ilmiy faraz, ya'ni "BSIFO" o'quv modulini o'qitish jarayonida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyaning shakllanish imkonligi amaliyotga joriy etilgan samarali texnologiyalar, usul hamda vositalar orqali o'z isbotini topdi.

Tajriba-sinov davrida qamrab olingan respondent-talabalar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar (ilovada berilgan) natijasi shuni ko'rsatadiki, respondentlarning ko'pchiligi tajriba



boshida savollarga aniq javob bera olmadilar. Shakllantiruvchi tadqiqotlardan so'ng esa ularga berilgan savollarga aniq va to'g'ri berilgan javoblar ko'rsatkichi 12,4 foiz ga o'sganligining guvohi bo'ldik. Shunday qilib, aniqlashiruvchi tajriba-sinov davrida bo'lg'usi tarbiyachilar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish darajasining amaliyotdagi ahvolini o'rganish va natijani tahlil etish qator xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

Tajriba-sinov jarayonining shakllantiruvchi bosqichida belgilangan vazifalarni bajarish, natijalarni tahlil qilishda "Bolalarni sahnalashirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" o'quv qo'llanmasi takomillashirildi va mazmunan boyitildi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda o'quv jarayonlar tashkil etildi, tadqiqot mavzusi doirasida mustaqil ta'lim mavzulari bazasi kengaytirildi. Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish samaradorligini aniqlash uchun belgilangan mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha o'zgarishi kuzatildi (3.1.5-jadval).

### 3.1.5-jadval.

#### Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish samaradorligini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari

| № | MEZONLAR                                                                                         | KO'RSATKICHLAR                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   | Talabalarni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan, malaka va tajribani egallashga yo'nalganligi | <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarda motivatsiya shakllari va motivlarining o'zgarib borishi;</li> <li>- bilim olishga shaxsiy tashabbusi;</li> <li>- muammoni mustaqil yecha olishi;</li> <li>- ma'ruza va amaliy darslarda integratsion yondashuvi;</li> <li>- sahnalashirish faoliyatiga oid tajribalarni egallashi.</li> </ul> |

|   |                                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   | Kasbiy sifatlarni namoyon etishda mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyon etishi | <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quv muhitida faol mo'ljall olib borish;</li> <li>- ta'lim jarayoni mazmunini belgilashda ishtiroki;</li> <li>- shaxsiy pozitsiyasiga egaligi;</li> <li>- mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi;</li> <li>- tengdoshlari bilan o'zaro ta'sirga kirisha olishi.</li> </ul>                                                                                         |
|   | Maktabgacha ta'lim sohasiga qiziqish va istakning mavjudligi                      | <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'z faoliyatiga ogli munosabat va o'z missiyasini his qilishi;</li> <li>- maqsadini to'g'ri qo'ya olishi;</li> <li>- o'z-o'zini nazorat qilish va rivojlantirishi;</li> <li>- muvaffaqiyatli faoliyat olib borish mezonlarini mustaqil belgilay olishi;</li> <li>- ta'lim jarayonidagi o'zgarish va innovatsiyalarni tahlil qilishi va tushunishi.</li> </ul> |
